

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYOTI” KAFEDRASI**

**5111700 - boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi**

**4-KURS 14.16-GURUH TALABASI**

**TO'XTASINOVA MUXLISA MUQIMJON QIZINING**

**ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANIDAN**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI  
DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGATISH  
METODIKASI**

**Ilmiy rahbar:**

**S.Zokirova**

Bitiruv malakaviy ishi Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida 2018 yil \_\_\_iyunda himoya qilindi va \_\_\_ baholandi

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

**K I R I SH..... 3**

### **I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FE'LNING VAZIFA SHAKLLARINI O'RGATISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

- 1.1. Fe'l so'z turkumi bo'yicha nazariy ma'lumot..... 6
- 1.2. Fe'lning lug'aviy shakllari va ma'noviy guruhlari ustida ishlash.....13
- 1.3. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumi o'rgatish metodikasi va uni amalga oshirishning samarali yo'llari.....21
- 1.4. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda texnologik yondashuv ..... 28

### **II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TURI VA SHAKLLARI**

- 2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish..... 34
- 2.2. Tajriba-sinov natijalari ..... 54

### **XULOSA VA USLUBIY TAVSIYALAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston istiqloлга erishishi bilan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlaganligi sababli, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar barcha sohalar qatorida ta'lim tizimi oldiga ham mazmun-mohiyati jihatidan butkul yangi vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarning amalga oshirilishi ta'lim tizimining muntazam takomillashtirib borilishini va shu orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishni taqozo etadi. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari etaklaydi.

Pedagoglarni tayyorlashda, ularni kasbiy shakllantirishda maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmuasini yaratish, o'qitishning yangi metod va shakllarini tadbqiq etish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish hamda oliy o'quv yurtida ta'lim olishi mobaynida uni kasbiy va shaxsiy rivojlanishtirish shakl va metodlarini rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

Kelajagimiz bo'lganyoshavlod bilime gallashda boshlang'ich ta'limda o'tiladigan fanlar nichi ququr, onglitarzda o'zlashtirishlarimuhimsanaladi. Shunday ekan, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich ta'limdagi fanlarni o'tishda jahon andozalariga mos va xos bo'lgan o'qitish usullaridan foydalanish muhimdir.

Kasbiy sifatlar sohasidagi izlanishlar sof didaktik yo'nalishda, yoki faqat pedagogik metodlar vositasida amalga oshirilmaydi. Sifatlar mohiyatini, ularning tabiatini, ichki shakllanish mexanizmlarini chuqur anglab etish, samarali ta'lim metodlarini ilmiy asoslash uchun jahon pedagogikasida mavjud ilg'or tajribalarni ijodiy tadqiq qilish va umumlashtirish, ta'lim oluvchining organizmida ta'lim jarayonida ro'y beruvchi jarayonlar, uning ruhiyatidagi o'zgarishlarni bilish talab etiladi. Bundan kelib chiqqan holda o'qituvchida kasbiy sifatlarni rivojlantirish muammosini hal qilish uchun didaktika va metodika sohasi psixologiya bilan mustahkam aloqada tadqiq qilinmoqi lozim.

Respublikamizda ta'lim tarbiyaning mazmun va mohiyatining o'zgarishi o'qituvchi va o'quvchi oldiga yangidan – yangi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ta'lim yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim tarbiya jarayonida, jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rganish barobarida o'quvchilarning bilim va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiriladi, bilish faoliyati faollashtiriladi, ta'lim tarbiya jarayonini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ma'suliyatini chuqur his qilgan holda ona tili darslarida fe'l so'z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgansak ko'zlangan maqsadga to'la erishamiz.

Yuqoridagilarga amal qilgan holda o'quvchilarni har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlashga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga o'rgatishimiz lozim. Ona tili darslarida fe'l so'z turkumlarini o'rganish va tahlil qilish biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadiva vazifalari**— boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishning usullarini ishlab chiqish, uni amaliyotda qo'llashdan iborat. Matnlar yordamida o'quvchilarni so'z turkumlari bo'yicha tahlilga o'rgatish.

Tadqiqot maqsadiga asoslanib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Boshlag'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatish malakalarini shakllantirish – pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash;
2. O'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart – sharoitlarni aniqlash;
3. O'quvchilarga dars jarayonlarida fe'l so'z turkumini o'rgatishni ta'minlaydigan shakl va metodlarni ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

**Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili.** O'zbek tilidagi fe'llarda harakat tarzi fe'l asoslardan fe'l yasalgan holatda ham ifodalanishi mumkinligi A.G'ulomov, A.Hojiev, M.Mirtojiev, Yo.Tojiev kabi olimlar fe'l so'z turkumi yuzasidan ilmiy ishlar olib borgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotda boshlang'ich sinflarda fe'l so'z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish aniq belgilab berildi hamda fe'lning kategoriya va nokategorial formalar tahlil etildi.

**Tadqiqot predmeti va ob'ekti** sifatida boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'rgatiladigan fe'l so'z turkumini tanlab oldik, **predmetini** — boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'rgatish, shuning barobarida o'quvchilarni ona tili darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat deb belgiladik.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tavsiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish usullariga oid ilmiy-nazariy ma'ruzalar tayyorlashda, ish tajribalarida ommalashtirishda xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

# I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINIO'RGATISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI.

## 1.1 Fe'l so'z turkumi bo'yicha nazariy ma'lumot.

Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, u *uxlamoq, yotmoq, turmoq* kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni, *qo'rqmoq, cho'chimoq, zavqlanmoq, qahrilanmoq* kabi fe'llar bildiradigan psixik o'zgarishlarni, *gullamoq, o'smoq*, kabi fe'llar bildiradigan biologik hodisalarni va shu kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Bulardan har birining o'ziga xos xususiy tomonlari bo'lishi bilan birga, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham bor, ya'ni bularning hammasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun bu harakat-hodisalarni bildiruvchi so'zlarning hammasi «nima qilmoq»? so'rog'iga javob bo'ladi. Ularni bir gruppaga kiritish va «fe'l» deb atashda ham xuddi ana shu umumiy xususiyati asosga olinadi.

O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki asosiy gruppaga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

Mustaqil fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) harakat bildiradi (ya'ni mustaqil ma'noga ega bo'ladi) va gapda uning biror bo'lagi vazifasida kela oladi: *Plan muddatidan ilgari bajariladi*; 2) biror so'zni boshqarib keladi: *ekinni sug'ormoq, dalaga chiqmoq* kabi; 3) harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab mustaqil fe'llar ikki gruppaga bo'linadi: a) ob'ektli fe'llar, b) ob'ektsiz fe'llar. Ob'ektli fe'llar bildirgan harakat ob'ekt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi va bunday fe'llar tushum kelishigidagi so'zni boshqaradi. Qolgan fe'llar bunday xususiyatga ega bo'lmaydi. Qiyoslang: *ol, so'ra, hayda* — ob'ektli fe'l; *kel, uxla, qiziq* — ob'ektsiz fe'l; 4) fe'l bildirgan harakat ob'ektiv harakatning tildagi ifodasi. Lekin u ob'ektiv harakatning aynan kopiyasi bo'lmay, kishi ongida aks etgan harakat, hodisa, holat kabilar haqidagi abstrakt tushunchadir. Demak, fe'l bildirgan harakatning ob'ektiv voqelikka munosabati ifodasida bevosita inson, aniqrog'i, so'zlovchi qatnashadi. Harakatning ob'ektiv voqelikka so'zlovchi tomonidan

belgilanadig'an munosabati ham tilda o'z aksini topadi. Bunday munosabat fe'l mayli deb ataladi va shunday munosabatni ifodalovchi formalar mayl formalari deyiladi. Mayl ma'nosiga egalik fe'lning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi: *bor* — buyruq mayli, *borsa* — shart mayli; 5) har qanday harakat bajarilish yoki bajarilmaslikka munosabatda bo'ladi va fe'llar ana shunday munosabatni ifodalovchi formaga ega bo'ladi. Bajarilishni bildiradigan forma — bo'lishli forma, bajarilmaslikka bildiradigan forma — bo'lishsiz forma hisoblanadi: *bordi* — bo'lishli, *bormadi* — bo'lishsiz; b) yuqorida ko'rdikki, harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab fe'llar bir-biridan farqlanadi. Bundan tashqari, harakat biror kimsa yoki narsa tomonidan bajariladi. Boshqacha aytganda, harakat sub'ekt (bajaruvchi) tushunchasi bilan ham bog'langan bo'ladi. Harakatning ob'ekt va sub'ektga bo'lgan munosabati fe'l darajalari deyiladi. Bunday munosabat maxsus grammatik formalar orqali ifodalanadi: *ayt* — bosh daraja formasi, *ayttir* — orttirma daraja formasi; 7) harakatning bajarilishi, albattazon (vaqt) doirasida bo'ladi. Shunga ko'ra harakat zamon ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi va fe'llar zamon ma'nosini ifodalovchi formalarga ham ega bo'ladi: *bordi* — o'tgan zamon formasi, *boryapti* hozirgi zamon formasi; 8) harakatning bajaruvchi shaxs bilan bog'langanini ko'rdiq Harakatning voqelikka munosabati esa bevosita so'zlovchi orqali reallashadi. So'zlovchi bor ekan, o'z-o'zidan, tinglovchi ham bo'ladi. Bundan tashqari, so'zlovchi va tinglovchidan chetdagi (o'zga) shaxs (shaxslar)ning bo'lishi ham tabiiy. Harakat sub'ekti ana shu shaxslarning biri (so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zga shaxs) bo'ladi. Harakatning ana shu shaxslarga bo'lgan munosabati shaxs-son kategoriyasi deyiladi va bu munosabatni ifodalovchi formalar shaxs-son formalari deyiladi: *bordim*, *bording*, *bordi* kabi; 9) mustaqil fe'llarning ot, sifat, ravish turkumlariga xos xususiyatlarga ega bo'lgan harakat nomi, sifat-dosh, ravishdosh formalari ham bor: *ishlash* (foydali), *ishlagan* (odam), *ishlab* (charchadi) kabi.

Yordamchi fe'llar harakat bildirmaydi (mustaqil ma'no ifodalamaydi). Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada qo'llanadi. Yordamchi fe'llarni asosiy xususiyatlariga qarab uch gruppaga bo'lish mumkin: 1)

soʻz yasash uchun xizmat qiluvchi va bogʻlama vazifasini bajaruvchi yordamchi feʼllar: boʻl, qil feʼllari; 2) feʼllarga birikib turli qoʻshimcha maʼno ifodalovchi yordamchi feʼllar: boshla (yoza boshladi), chiq (oʻqib chiqdi) kabi. Bularni, boshqa yordamchi feʼllardan farqlagan holda «koʻmakchi feʼllar» deb atash mumkin; 3) feʼllar, shuningdek, otlar bilan qoʻllanib, turli maʼno ifodalovchi va yordamchi vazifa-falarda qoʻllanuvchi yordamchi feʼl. Bu feʼl lingvistik adabiyotlarda «toʻliqsiz feʼl» deb ataluvchi feʼldir: *edi, ekan* kabi.

Oʻzbek tilidagi yasama feʼllarning koʻpchiligi ikki asosiy usul: 1) affiksatsiya va 2) kompozitsiya usuli bilan yasalgan feʼllar-dir.

Affiksatsiya usuli (sintetik usul). Oʻzbek tilida feʼl yasovchi affikslar juda ham koʻp emas. Lekin oz miqdordagi bu affikslar yordamida juda koʻp miqdordagi feʼllar yasaladi. Yasama feʼllarning asosiy qismini affiksatsiya usuli bilan yasalgan feʼllar tashkil etadi. Bu jihatdan feʼl yasalishining bu usuli eng mahsuldor usul hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli bilan oʻzbek tilida feʼl boʻlmagan soʻzlardangina feʼl yasaladi: *ish-ishla, kuch-kuchay* kabi.

**Kompozitsiya** usuli (analitik usul). Bu usul bilan qoʻshma feʼllar yasaladi: *javob bermoq, olib kelmoq* kabi.

Qoʻshma feʼllar komponentlarining qanday soʻzdan ekaniga koʻra ikki asosiy turga boʻlinadi: ot Q feʼl tipidagi qoʻshma feʼllar (feʼl boʻlmagan soʻz bilan feʼlning birikishidan hosil boʻlgan qoʻshma feʼllar) va feʼl Q feʼl tipidagi (ikki feʼlning oʻzaro birikishidan hosil boʻlgan) qoʻshma feʼllar: *hurmat qilmoq, sotib olmoq*. kabi.

Oʻzbek tilida butunlay koʻmakchi felga aylangan (mustaqil maʼnosini yoʻqotib, faqat koʻmakchi feʼl sifatida qoʻllanadigan) birorta ham feʼl yoʻq. Ayrim mustaqil feʼllar koʻmakchi feʼl vazifasida ham qoʻllanadi va turli-tuman maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: *boshla, yot, tur, yur, oʻtir, boʻl, bit (bitir), ol, ber, qol, quy, chik, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, oʻl, oʻt, et, koʻr, qara, boq, ez*. Bu koʻmakchi feʼllarning har biri oʻziga xos



xususiyatlarga egaligi bilan birga ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor.

Shaxs-son, zamon va mayl kategoriyalari fe'llarga xos asosiy grammatik kategoriyalardan hisoblanadi. Bu grammatik kategoriyalarning har biri birdan ortiq grammatik ma'noga va shu ma'noga xos grammatik formalarga ega. Masalan, shaxs-son formalari: *yozyapman, yozyapsan, yozyapti; yozyapmiz, yozyapsiz, yozyapti (lar)*. Zamon formalari: *yoedim, yozyapman, yozaman, yozarman* va b. Fe'lning ana shunday zamon, shaxs-son, mayl formalari bilan o'zgarishi tuslanish va bunday formalarni hosil qiluvchi affikslar tuslovchilar deyiladi. Demak, tuslanish sistemasidagi fe'l mayl, shaxs-son, zamon jihatdan shakllangan bo'ladi. Lekin bundan tuslanishli fe'lning asosiy belgisi doim mayl, zamon va shaxs-son jihatdan shakllangan bo'lishi kerak degan xulosa chiqmaydi. Bunda quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tish kerak bo'ladi.

Fe'l turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan boy va murakkab grammatik kategoriyalar sistemasiga egaligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilar: 1) daraja, 2) bo'lishli-bo'lishsizlik, 3) mayl, 4) za-mon, 5) shaxs-son.

**Daraja kategoriyasi.** Daraja kategoriyasi harakatning sub'ekt va ob'ektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus fe'l formalari orqali ifodalanadi. Masalan, *kitobni o'qidi* — gapning egasi harakatni bevosita bajaruvchisidir; *kitobni o'qitdi*—kitob o'qishni bevosita bajaruvchi boshqa bir shaxs (kitobni ukasiga o'qitdi), *kitob o'qildi* — harakatning bajaruvchisi noaniq va b. Demak, fe'lning daraja formasi o'zgarishi bilan harakatning sub'ekt va ob'ektga bo'lgan munosabati ham o'zgaradi. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil daraja formasi bor: bosh daraja, o'zlik da-rajaja, orttirma daraja, birgalik daraja, majhul daraja.

**Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi.** Bo'lishli yoki bo'lishsiz formada bo'lish fe'lga xos asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Har qanday fe'l yo bo'lishli, yoki bo'lishsiz formada bo'ladi. Bo'lishli forma harakatning tasdig'ini, bo'lishsiz forma esa inkorini bildiradi: *yoedi* — *yozmadi*. Bo'lishli formaning maxsus grammatik

ko'rsatkichi yo'q. Bo'lishsizlik (inkor) ma'nosi esa maxsus grammatik vositalar yordamida ifolalanadi.

**Mayl kategoriyasi.** Mayl kategoriyasi harakat bilan sub'ekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabatning turlicha bo'lishidan maylning ham bir necha turi bor va har bir turga xos ma'nolar maxsus formalar orqali ifodalanadi;

1) buyruq-istak mayli, 2) shart mayli, 3) shartli mayl, 4) maqsad mayli, 5) ijro mayli. Fe'lning tuslanishli formalari, albatta, ana shu mayl turlaridan biriga mansub bo'ladi.

**Zamon kategoriyasi.** Fe'l bildirgan harakatning bajarilishi, albatta, ma'lum bir vaqtda bo'ladi. Demak, harakat vakt (zamon) tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Fe'l bildirgan harakat ob'ektiv harakatning tildagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham harakatning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan ob'ektiv vaqtning tildagi ifodasidir. Lekin ob'ektiv zamonning tildagi ifodasining o'zi grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutk momenti ham sub'ek tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lman, ob'ektiv zamon (vaqt)ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir (so'zlash, nutqsq *ham* harakat hisoblanadi va uning bajarilishi ob'ektiv vaqtning biror qismiga to'g'ri keladi). Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch xil zamonnifarqlanadi: 1) nutk momentigacha bo'lgan harakat— o'tgan zamon; 2) nutq momentida ham davom etayotgan (tugamagan) harakat — hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat— kelasi zamon. Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va bu formalar fe'lning zamon formalari deb ataladi. Ijro maylidagi fe'llarda harakatning nutq momentiga munosabati bevosita ifodalanadi. Bu mayl formasi bildirgan zamon absolyut zamon hisoblanadi. Ayrim fe'l formalari, masalan, sifatdosh va ravishdosh formalari harakatning nutq momentiga munosabatini bevosita ko'rsata olmaydi. Shuning uchun bulardagi zamon nisbiy zamon bo'ladi (Bu haqda «sifatdosh» va «ravishdosh» bo'limlariga qarang).

Hozirgi o'zbek tili fe'lining zamon formalariga juda boyligi bilan ham xarakterlanadi. Harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fe'lining -zamon formalari uch asosiy gruppaga bo'linadi:

1) o'tgan zamon formalari (*bordi, borgan, boribdi, borgan edi* va b.).

2) hozirgi zamon formalari (*boryapti, bormoqdo, borib turibdi* va b.);

3) hozirgi-kelasi zamon formasi (*boradi, ishlaydi* kabi) O'tgan zamon formalari

Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamon fe'lining bir necha formalari bo'lib, ular o'zlariga xos ma'no va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

**Shaxs-son kategoriyasi.** Shaxs-son ma'nolari fe'lga xos grammatik ma'nolar bo'lib, bu ma'nolar bir-biriga kisman olinishi mumkin bo'lgan bir necha formalar orqali ifodalanadi, *keldim*—birinchi shaxs, *kelding*—ikkinchi shaxs va b.

Tuslanishli formada harakatning bajaruvchisi (bajaruvchi shaxs) ham ko'rsatiladi. Harakat bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zaro suhbatda ishtirok etmovchi o'zga shaxs bo'lishi mumkin. Bu ma'nolar maxsus formantlar yordamida ifodalanadi, Shaxs bildiruvchi formantlar ayni vaqtda bajaruvchining son-mikdorini ham ko'rsatadi. Bajaruvchining birdan ortiqligini bildiruvchi forma shu shaxsning ko'plik formasi bo'ladi: *bor-dik* — birinchi shaxs, ko'plik formasi.

Birinchi shaxs birlik formasi harakat bajaruvchisi so'zlovchining o'zi ekanini bildiradi: *bordim, kelganman* kabi. Uning ko'pligi esa harakatning so'zlovchi mansub bo'lgan kollektivga oidligini bildiradi: *bordik, borganmiz, boramiz* kabn. Ikkinchi shaxsning birligi harakatning bajaruvchisi tinglovchi ekanini, ko'pligi esa tinglovchi mansub bo'lgan kollektiv ekanini bildiradi: *bording, borasan; bordingiz, borasiz* kabi. Uchinchi shaxs formasi so'zlovchi va tinglovchidan boshqa shaxs (birlik) yoki shaxslar (ko'plik) harakat bajaruvchisi ekanini bildiradi. Ko'plik ma'nosining ifodalanishida *-lar* affiksi ham qatnashadi: *boradi, boradilar* kabi.

Fe'ning birinchi va ikkinchi shaxs formasi kishi (odam)larga nisbatan, uchinchi shaxs formasi esa kishi (odam) va predmetlarga nisbatan ham qo'llanadi:

*keldim, kelding, keldi, gulladi*. Badiiy ifodalarda «jonlashtirish» bilan bayon etishda birinchi va ikkinchi shaxs formasi predmetlarga nisbatan ham qo'llanadi: «*Qizil vogon*», *yana qaerlarga olib borasan sen? Meni Feruzadan qancha olisga olib ketasan?* (H. G'ulom). Tuslanishli fe'llar majhul daraja formasidan boshqa daraja formalarida hamma vaqt uch shaxsdan birini aniq ko'rsatadi. Majhul daraja formasida harakatniig bajaruvchisi aniq bo'lmaydi. Umuman, bu daraja formasida harakat bajaruvchisiga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lmaydi: *Gektaridan qirq tsentnerdan hosil olindi*.

Birinchi va ikkinchi shaxsning birlik va ko'pligi maxsus ko'rsatkichlarga ega. Uchinchi shaxs ko'pligi esa shaxs ko'rsatuvchi maxsus ko'rsatkichga ega emas. Bunda ko'plik ma'nosi birlikka *-lar* affiksini qo'shing orqali yoki birgalik daraja formasi orqali ifodalanadi. Ko'pgina *-hollarda* esa birlikning o'zi ko'plik uchun ham qo'llanaveradi: *bolalar keldilar, bolalar kelishdi, bolalar keldi*.

**Sifatdosh.** Sifatdoshlar fe'lning funksional formalaridan bo'lib, uning vazifa doirasi harakat nomi formasining vazifa doirasiga nisbatan ancha kengdir. Bu turdagi fe'l formalarining «sifatdosh» deb atalishi ularning bir asosiy xususiyatiga ko'ra, ya'ni sifatlar kabi predmetning belgisini ko'rsatishiga ko'radir, Sifatdosh formalari, asosan, ana shu xususiyati bilan fe'lning tuslanishli formalaridan farqlanadi.

Fe'llar ham, sifatlar ham, shuningdek, sonlar ham, umumai olganda predmetning belgisini bildiradi. Lekin bu turkumlarga oid so'zlar leksik-semantik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Fe'llar predmetning harakat-holatini, sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati va shu kabi belgilarini, sonlar esa predmetning soni, miqdorini bildiradi: *kelgan odam, yaxshi odam, uchta odam*. Sifatdoshning leksik-semantik jihatdan sifat va son turkumiga oid so'zlardan farqi uning harakat yoki holat ifodalashidir. Shunga ko'ra, sifatdosh fe'l (fe'l formasi) hisoblanadi.

**Ravishdosh.** Harakat belgisini bildiradigan, uni biror tomondan xarakterlaydigan fe'l formasi ravishdosh deb ataladi. Ravishdoshlar faqat tuslanishli fe'llar bildirgan harakatning emas, balki sifatdosh, harakat nomi, hatto, ravishdosh

formasidagi fe'l bildirgap harakatning ham belgisini ko'rsataveradi: *kulib gapirdi, kulib gapiradigan, kulib gapirish, kulib gapirib* kabi. Buning sababi shuki, harakat bildirishi jihatdan funksional formalar ham tuslanishli formalardan farqlanmaydi va harakat bildirgan har qanday formadagi fe'l bilan ravishdosh formasi qo'llana oladi.

**Harakat nomi.** Fe'lning harakat nomi formasi *-(i)sh, -(u)v, -moq* affikslari yordamida yasaladi: *yozmoq, yozish, yozuv; o'qimoq, o'qish, o'kuv. -moq -(i)sh, -(u)v* affikslari yordamida yasaluvchi fe'l formalari harakatning bajarilishini va shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgach boshqa ma'nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning nomini bildiradi, u harakat-holatning atamasi hisoblanadi. Shu sababli otlarga xos grammatik ko'rsatkichlarni qabul qila oladi, gapda otlarga xos vazifalarda kela oladi.

## **1.2. «Fe'l»ning lug'aviy shakllari va ma'noviy guruhleri ustida ishlash.**

Maktabda morfologiya o'qitishning ahamiyati va vazifalari. Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning shakllari, bu shakllarning hosil bo'lish yo'llari va so'zlarning ma'lum belgilar asosida guruhlarga, ya'ni so'z turkumlariga bo'linishini o'rganadi. Shu bois, morfologiyani o'qitishda asosiy e'tibor so'zning tuzilishi, yasalishi, so'z turkumlariga bo'linishiga qaratiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma'lumotlar bilan boshlang'ich sinflarda tanishadilar. So'zlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe'llar, olmoshlar, yordamchi so'zlar kabi guruhlarga ajratish boshlang'ich sinfdan ularga ma'lum.

Ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar avvalo boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning mantiqiy davomi sanaladi.

Maktabda morfologiyani o`qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki keyingi bosqichda o`rganiladigan «Sintaksis» bo`limi bevosita morfologiya bilan bog`langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo`shimchalar garchand morfologiya ob`ekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so`z va so`z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta`minlovchi vosita sanaladi. Qo`shma gap sintaksisini o`rganishning bevosita yordamchi so`zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Maktabda morfologiyani o`qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur o`rganishda o`z amaliy ifodasini topadi. O`quvchi mustaqil va yordamchi so`z turkumlarini o`rganishda so`zning o`z va ko`chma ma`nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma`noli so`zlarga yana murojaat qiladi va so`z boyligini oshirish, so`zdan to`g`ri xam o`rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda bu bo`limni o`rganishni zaruriyatga aylantiradi. Chunki morfologik prinsip orfografiyaning etakchi prinsipi sanaladi.

Shunday qilib, maktab morfologi kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko`zda tutadi:

-o`quvchilarni so`z yasashga, so`zning yangi shakllarini hosil qilishga o`rgatish; so`z zahirasini oshirish, so`zdan tug`ri va o`rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;

-so`zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;

-imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

-gap qurish va matn yaratish malakalari ustida ishlash;

DTSda ko`zda tutilgan talablar har bir mavzuni o`rganish jarayonida izchillik bilan amalga oshirildi.

O`quvchilarni so`z turkumlarini o`rganishga tayyorlash. So`zlarni turkumlarga ajratish «To`plam» va «tasnif» tushunchalarining mohiyatini anglash bilan chambarchas bog`langan. O`quvchilar 6-sinf darsligining 1- betidagi rasmda berilgan narsa-buyumlarni shu buyumlar orasidagi o`xshashliklar asosida guruhlash orqali «to`plam» va «tasnif» xususida umumlashma hosil qiladilar.

«To`plam» deyilganda tahlil qilish, o`rganish uchun olingan har xil narsalar, belgilar, voqea-hodisalar majmuasi tushuniladi.

«Tasnif» esa to`plamni avval kattaroq guruhlariga, so`ngra bunday guruhlarning o`zini ichki turlarga, ajratilgan turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko`rinishlarga bosqichma-bosqich saralashdir.

Tasnif xususida o`quvchilar hosil qilgan tasavvurlar darslikning 13-betida berilgan «Tasnif-borliqni bilish asosi» ma`rifiy matni orqali mustahkamlanadi.

O`quvchilar «to`plam» va «tasnif» tushunchalarining mohiyatini anglashgach, so`z tarkibi va qo`shimchalar tasnifini o`rganishga tayyor bo`ladilar.

So`zni o`zak va qo`shimchalarga ajratish va so`z turkumlarini o`rganishga puxta zamin hozirlaydi. O`quvchilar berilgan so`zlardan o`zakdoshlarni topish, o`zakdoshlar nima bilan bir-biridan farqlanishini tushuntirish, o`zakdosh so`zlarni qo`shimchadoshlarga ajratish, qo`shimchalarning o`zaklarga qanday qo`shimcha ma`no qo`shayotganligini aniqlash orkali o`zak va qo`shimcha haqida keng ma`lumotga ega bo`ladilar.

So`zning o`zagini aniqlay olish, qo`shimchalarning turlarini bilish fe'l, ot, sifat, ravishlarni tub va yasama so`zlarga to`g`ri ajrata olish imkonini beradi.

O`quvchilar so`z yasovchi, so`z o`zgartiruvchi va shakl yasovchi qo`shimchalar xususida zaruriy bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashgach, so`z

tarkibi bilan tanishadilar hamda soʻzning asosi xususida umumlashma hosil qiladilar. Bu soʻz turkumlarini puxta oʻrganish uchun poydevordir.

Maktabda soʻz turkumlarini oʻrganish. «Feʼl» soʻz turkumini oʻqitish. «Feʼl» soʻz turkumi xususidagi dastlabki maʼlumotlar boshlangʻich sinflarda va «V» sinfda «Muqaddima» boʻlimi orqali beriladi. SHuning uchun mazkur soʻz turkumini oʻrganishdan oldin egallangan bilim, malaka va koʻnikmalar takrorlanadi. Berilgan boʻlishli feʼllardan boʻlishsiz (va aksincha) feʼllar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan feʼllarning zamonini almashtirib qoʻllash, kesimlarga shaxs-son va zamon qoʻshimchalari qoʻshish ishlari oʻrganilganlarni oʻquvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

Feʼl soʻz turkumiga oid mavzularni oʻrganishda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning soʻz zahirasi feʼllar bilan boyitish, ogʻzaki va yozma nutqda ulardan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iboratdir.

Oʻquvchilarning soʻz zahirasi feʼllar bilan boyitishning muhim choralaridan biri feʼl-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan feʼllarga maʼnodoshlar topish (mas., ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron boʻlmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq), sinonimik uyadagi maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlarning maʼnosini izohlash, qatordagi har bir soʻz yordamida gaplar tuzish (mas., Salimaxon berilgan soʻzlar ichidan feʼllarni *ajratdi*. Bozorga olib ketilishi lozim boʻlgan mevalarni bir yoqqa *ayirdi*), matnni tahrir qilib, takrorlangan feʼllar oʻrniga ularning sinonimlarini qoʻllash singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish oʻquvchilarning soʻz zahirasi oshirishda oʻta muhimdir.

«Harakat nomi» mavzusini oʻrganishda berilgan matn yoki gaplardan harakatni atab kelgan soʻzlarni ajratish, ularni qoʻshimchadoshlarga boʻlib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qoʻshimchadosh soʻz guruhlari uchun xos boʻlgan qoʻshimchalar: -sh –ish, -v, - uv, -moq ni ajratish, bu qoʻshimchalar bilan hosil boʻlgan soʻzlarning imlosi, gaplarni harakat nomi birikmalariga, birikmalarni gaplarga aylantirish (mas., haqiqat tantana qiladi, -



Haqiqatning tantana qilish kabi), harakat nomlarini *zarur, kerak, lozim, shart, muhim* kabi soʻzlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi ustida ish olib boriladi.

Feʼlning ravishdosh va sifatdosh shakllarini oʻrganishda ham shunga oʻxshash amaliy ishlar davom ettiriladi. Oʻquvchilar berilgan feʼl juftlarini (mas., keldim, ishladim) bogʻlovchilar yoki ohang vositasida bogʻlab gap tuzish, bu feʼllarni –b (-ib), - gach (-kach) qoʻshimchalari bilan biriktirib, gaplarning shaklini oʻzgartirish (mas., men keldim va ishladim – Men keldim, ishladim – Men kelib ishladim – Men kelgach ishladim kabi), ravishdosh yasovchi qoʻshimchalar roʻyxatini tuzish, ular yordamida soʻzlar hosil qilish, bu qoʻshimchalarning imlosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalaniladi.

Sifatdoshlarni oʻrganishda oʻquvchilar berilgan «sifat – ot» shaklli birikmalarda (mas., siniq shisha, buzuq uy, quruq meva) sifatni feʼl bilan almashtirish (mas., singan shisha, buzilgan uy, qurigan meva) va sifatli birikmalar hosil qilish, sifatdoshlarni hosil qiluvchi birikmalarni aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini oʻzgartirish (mas., Kim koʻp oʻqisa, dono boʻladi. - Koʻp oʻqigan kishi dono boʻladi) singari topshiriqlarni berish mumkin.

Maʼlumki, tusanlangan feʼllarning ham, tuslanmagan feʼllarning ham boʻlishli va boʻlishsiz shakllari mavjud. Oʻquvchilar bu mavzularni oʻrganishda boʻlishli feʼllarni boʻlishsiz shaklga va aksincha, boʻlishsiz feʼllarni boʻlishli feʼllarga aylantirish, boʻlishsiz shaklni hosil qiluvchi koʻshimchalarni aniqlash ustida ish olib boradilar.

Mazkur soʻz turkumini oʻrganishda oʻquvchini taʼlim jarayonining faol ishlovchisiga aylantirish uchun kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, amalda qoʻllash singari aqliy faoliyat usullarini qoʻllash lozim.

«Fe'l» soʻz turkumiga oid barcha mavzular til xodisalarini kuzatish va izlanish bilan boshlanib, umumlashmalar hosil qilish va amalda qoʻllash bilan yakunlanadi.

«Fe'llarning yasalihi» mavzusini oʻrganishdan oldin oʻquvchilarning oʻzak va qoʻshimcha xususida egallagan maʼlumotlari xotirada tiklanadi. Berilgan soʻzlarni oʻzakdoshlarga ajratish va har bir soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansub ekanligini aniqlash oʻrganilganlarni xotirada tiklash hamda yangi mavzuni oʻrganishga zamin hozirlaydi.

Berilgan fe'llarni oʻzagiga qarab, ularni otlardan, sifatlardan, taqlidiy soʻzlardan hosil boʻlgan fe'llar kabi guruhlariga ajratish, -la, lan, -lash, -illa, -irra, -y, -ay, -r, (-ar), -ik, (-ik), -i,-t qoʻshimchalari yordamida berilgan tub soʻzlardan fe'llar hosil qilish va har bir guruhni mustaqil davom ettirish, ularning imlosi ustida ishlash oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish, imlo savodxonligini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Muayyan qolip asosida soʻzlar hosil qilish ham bolalarning soʻz boyligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Masalan, «ot-la», «sifat-ay», «fe'l-sa edi (-saydi)», «Fe'l – sa kerak» (tishla, toray, uzsa edi, yozsa kerak v.h.) shunday qoliplar sirasidandir.

«Qoʻshma fe'llar» mavzusini oʻrganishda oʻquvchilarni matndan «ot fe'l» tuzilishli qoʻshma fe'llarni ajratish ularning maʼnosi va imlosini sharhlash; ajratilgan qoʻshma fe'llarni yasovchi fe'lga koʻra (qilmoq, bermoq, koʻrmoq, olmoq kabi) guruhlash, ularni mustaqil davom ettirish; qoʻshma fe'llarni tub va yasama sodda fe'llar bilan almashtirish (yordam bermoq - yordamlashmoq, gʻamxoʻrlik qilmoq- qaygʻurmoq kabi); matndan «Ravishdosh-fe'l» shaklli qoʻshma fe'llarni ajratish, birinchi fe'lning qoʻshimchalarini aniqlash, ikkinchi fe'lga koʻra qoʻshma fe'llarni guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, koʻmakchi fe'lni izohlash, bilmoq, yotmoq, turmoq, surmoq, bilmoq, bormoq, ketmoq, qolmoq, chiqmoq kabi koʻmakchi fe'llarning maʼnosini izohlash, olmoq,

bermoq fe'llarining imlosi (ayta oldi-aytoldi, ayta berdi-aytaverdi) ustida ishlash singari ijodiy amaliy ishlar o`ta foydalidir.

«Fe'l» so`z turkumini o`rganishda o`quvchilarni shu so`z turkumining uslubiy imkoniyatlari bilan tanishtirish ham, ayniqsa, zarur.

«Fe'l» so`z turkumini o`rganishda gap ustida ishlash markaziy o`rinni egallaydi. Bir bo`lakli sodda gaplarni fe'l kesimdan so`roq berish orkali ikki bo`lakli va ko`p bo`lakli sodda gaplarga aylantirish (mas. Boraman – Men boraman- Men bugun qishloqqa boraman –Men bugun buvimni ko`rgani qishloqqa boraman kabi), gaplarda tushlangan fe'llarni tushlanmagan fe'llar bilan almashtirish (mas., Yozgi ta'til boshlandi va biz sayohatga chiqdik –Yozgi ta'til boshlangach biz sayohatga chiqdik; Karim xatni oldi va diqqat bilan o`qidi- Karim xatni olib, diqqat bilan o`qidi kabi,) harakat nomlari ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish, gaplarni harakat nomi birikmalariga, bunday birikmalarni gaplarga aylantirish (mas., hamma biladiki, haqiqat tantana qiladi- Haqiqatning tantana qilishini hamma biladi kabi) berilgan fe'l juftlarini bog`lovchilar yoki ohang yordamida bog`lab gap tuzish, bu fe'llarni hosil qilingan gaplar tarkibida bir-biri bilan yana qaysi usul bilan bog`lash mumkinligini aniqlash, gaplarni kengaytirish va toraytirish singari amaliy ishlar o`quvchilarda faqat morfologik malakalarnigina emas, balki sintaktik malakalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

«Fe'l» so`z turkumini o`qitishda DTSning muhim talabalari (o`qish texnikasi; o`zgarlar fikri va matn mazmunini anglash malakasi; fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi)ga amal qilinadi. Mazkur so`z turkumini o`qitishda har bir o`rganilayotgan mavzu bilan bog`liq holda bu talablar amalga oshiriladi. Chunonchi, o`qish texnikasi sodda va qo`shma fe'llarning aytilishi ustida ishlash, nisbat qo`shimchalarining tug`ri talaffuz etish, kengaytirilgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh birikmali gaplarni o`qish, qo`shma fe'llarning talaffuzi ustida ishlash, shu so`z turkumi bilan bog`liq holda berilgan matnlarni ifodali o`qish orqali amalga oshirilsa, o`zgarlar fikri va matn mazmunini anglash, so`z ma'nolari ustida ishlash, berilgan fe'llarga ma`nodoshlar topish hamda ularning har biri

ishtirokida gaplar qurish, matn mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlash, reja tuzish singarilar orqali qo'lga kiritiladi.

Fikrni yozma shaklda bayon qilish malakalari esa, asosan har bir soatlik dars mashg'uloti davomida yoki dars oxirida matn yaratish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Maktabda morfologiya o'qitishning ahamiyati va vazifalari: o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini xosil qilishga o'rgatish, so'z zahirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;

- so'zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarni kengaytirish;

- imloviy savodxonlikni takomillashtirish;

- gap qurish va matn yaratish malakalari ustida ishlash.

2. O'quvchilarini so'z turkumlarini o'rganishga tayyorlash.

- «To'plam» deyilganda tahlil qilish, o'rganish uchun olingan har xil belgilar, voqea- hodisalar majmuasi tushuniladi.

- «Tasnif» esa to'plamni avval kattaroq guruhlariga, so'ngra bunday guruhlarning o'zini ichki turlarga, ajratilgan turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko'rinishlarga bosqichma- bosqich saralashdir.

3. Maktabda so'z turkumlarini o'rganish «Fe'l» so'z turkumini o'qitish imkoniyatlari:

- o'quvchilarning so'z zahirasini fe'llar bilan boyitish;

- «harakat nomi» mavzusini o'rganishda berilgan matn gaplardan harakatni atab kelgan so'zlarni ajratish, ularni qo'shimchadoshlarga bo'lib guruhlash;

- fe'lning ravishdosh va sifatdosh shakllarini o'rganishda fe'l juftlarini bog'lovchilar yoki ohang vositasida bog'lab gap tuzish;

- uyadosh fe'llar ustida ishlash;

- fe'llarning yasalishi mavzusini o'rganishda so'zlarni o'zaklarga ajratish; boshqa so'z turkumlaridan yasalgan fe'llarni guruhlariga ajratish;

- muayyan qoliplar asosida soʻzlar hosil qilish, mas., «ot-la», «sifat-ay», «feʼl-sa edi (-saydi)», «feʼl-sa kerak»(tishla, toray, uzsa edi, yozsa kerak) kabi;

- qoʻshma feʼllar mavzusini oʻrganishda oʻquvchilarni matndan « ot + feʼl» tuzilishli qoʻshma feʼllarni ajratish, ularning maʼnosi va imlosini sharhlash kabi.

### **1.3. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida feʼl soʻz turkumini oʻrgatish metodikasi va samarali yoʻllari**

**Feʼl ustida** ishlashda izchillik, boʻlimlar orasidagi bogʻlanish, dastur materialining hajmi, turini har bir sinfda oʻrganish usullari va vositalari shu soʻz turkumini oʻrganish vazifasi, feʼlning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi oʻquvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

„Feʼl“ mavzusini oʻrganishda asosiy vazifalar: soʻz turkumi sifatida feʼl haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, oʻquvchilar nutqini feʼllar bilan boyitish hamda ogʻzaki va yozma nutqda feʼldan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini oʻstirish, oʻquvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bogʻliq holda ayrim imloviy qoidalarni oʻzlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bogʻliq holda hal etiladi.

Feʼlning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlangʻich sinf oʻquvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

**Feʼlni oʻrganishda izchillik. 1-sinfda feʼl ustida ishlash.** Feʼl ustida ishlashga tayyorgarlik savodga oʻrgatish davrida boshlanadi. Bu davrda oʻquvchilarning diqqati feʼlning leksik maʼnosiga qaratiladi; feʼl uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik maʼnoni, yaʼni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yigʻiladi. Feʼl ustida ishlash mashqlarini „Alifbe“dagi soʻz va mashqlarni oʻqish, rasmga qarab gap tuzish bilan bogʻlab oʻtkaziladi. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilar gap tuzishda mazmunga mos

fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar: *Kuzda mevalar nima qiladi?...* (pishadi), *sabzavotlar nima qiladi?...* (yetiladi), *daratl barglari nima qiladi?...* (sarg'ayadi). *Bolalar nima qilyaptilar?...* (dam olyaptilar), *...(o'ynayaptilar), (ishlayaptilar).*

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi). Fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilyapti?) *yugurayapti, arralayapti, sakrayapti,* (nima qildi?) *yugurdi, arraladi, sakradi,* (nima qiladi?) *yuguradi, arralaydi, sakraydi* kabi misollardan foydalanish bilan o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobini (fe'lni) so'roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi. O'quvchilarni so'roq berish bilan holat bildiradigan *uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi* kabi fe'llarni ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasining shakllana borishiga yordam beradi.

Dastur o'quvchilarda so'zlarga so'roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi fe'lning har xil shakllaridan foydalanib, maxsus mashqlar o'tkazadi. Nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bilan *nima qildi? (nima qilyapti?, nima qiladi?)* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar taqqoslanadi: nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar guruhi predmetni bildirishi, nima qildi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa predmet harakatini bildirishi aniqlanadi. Taqqoslash ot va fe'lni ajratishga o'rgatadi, ularning nutqda bir-biriga ta'sir etishini aniqlashga imkon beradi.

DTSga muvofiq, boshlang'ich sinflarda morfologiyadan: ot, sifat, son, fe'l, kishilik olmoshi sintaksisdan: gap, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak, uyushiq bo'lak, undalma kabi tushunchalarni, so'z yasalişidan: o'zak, qo'shimcha, o'zakkosh so'zlar kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi. Grammatik tushunchalar so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksika, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi

hisoblanadi. O'qituvchi bu tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarishi, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun tushuncha nimaligini bilib olishi, bu jarayonning xususiyatlarini, tushunchani qanday sharoitda o'zlashtirilishi samaraliroq bo'lishini ko'z oldiga keltira olishi kerak. Boshlang'ich sinflarda grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. Shunga ko'ra, o'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy faoliyatini rivojlanish darajasini aniq bilib olishi zarur. Grammatik tushunchalardan so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) boshlang'ich sinflarda soddadan murakkabga qarab, izchillik tizimida o'rgatiladi. So'z turkumlari ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiy malakalari, kishilarning aloqa vositasi bo'lmish tilning hususiyatlari, to'g'rnutqning ahamiyati haqidagi bilimlari takomillashib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar va shu o'rganagan belgilari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar:

Shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holatni bildiradigan so'zlar;

Bu so'zlarning qanday so'roqlarga javob bo'lishi;

So'zlarni o'zgarish-o'zgarmasligi va doimiyligi;

Gapda qanday bo'lak vazifasida kelishi.

O'quvchilarni o'rgananlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari kengaya boradi. Boshlang'ich sinf ona tili dasturiga ko'ra, o'quvchilarda so'zlarni dastlab, javob bo'ladigan so'roqlariga qarab guruhlab, o'rgatiladi. 3-sinfda "So'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrimbelgilar: so'z turkumining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi bilan tanishtiriladi. 4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini, shaxs-son va zamoni o'rganadilar.

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish yuzaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima*

*qilmoqchi?so'roqlarini*, ikki va undan ortiq kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildilar?*, *nima qilyaptilar?*, *nima qilmoqchilar?* so'roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida, fe'l zaronlarini o'rganishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga, o'qituvchi bergan so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni tanlashga, so'zni so'rog'igamos ravishda o'zgartirishga (*nima qildi?* — o'qidi, *nima qilamiz?* o'qiyamiz, *nima qilmoqchi?*— o'qimoqchi kabi) o'rgatiladi.

**2-3-sinflarda fe'lni o'rganish.** Bu bosqichning asosiy vazifasi Fe'l - so'z turkumi degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va b'o'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilarning o'zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda „O'qituvchi nima qildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilar nima qilyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?“ kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib beradilar. Masalan, *nima qildi?* - so'zladi, tushuntirdi; *nima qildilar?* - tingladilar, yozdilar; *nima qilyapti?* - tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti; *nima qilyaptilar?* - • javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; *nima qiladi?* - tekshiradi, ko'radi; *nima qiladilar?* ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: *nima qildi?* *nima qilyapti?* *nima qiladi?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi.



Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Dasturga ko'ra 3-sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun „O'qish darsida kimlar o'qidi? Shokir ham o'qidimi? Kim so'zladi? Alisher so'zladimi? Barno kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?“ kabi savollardan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydilar va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa chiqariladi: fe'l harakatning yuzaga chiqqanini, ya'ni bajarilganligini (*o'qidi, so'zladi*), hozir bajarilayotganini (*tushuntiryapti*), endi bajarilishini (*boradi, o'qiydi*) bildiradi. Bu fe'llar **bo'lishli fe'llar** deyiladi. Ayrim fe'llar harakatning bajarilmaganligini (*o'qimadi, so'zlamadi*), hozir bajarilmayotganini (*o'qimayapti*), keyin ham bajarilmasligini (*bormaydi*) bildiradi. Bunday fe'llar **bo'lishsiz fe'llar** deyiladi.

O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni so'roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so'roqlarini bo'lishsiz fe'l qanday hosil bo'lganini aytadilar. O'quvchilar bilimi mashqlar bilan mustahkamlanadi, bo'lishsizlik qo'shimchasi -*ma -mi* shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha -*ma* shaklida yozilishi tushuntiriladi. O'quvchilarda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ma'nolariga qarab farqlash ko'nikmasini o'stirish uchun bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l hosil qilish, bo'lishsiz fe'llarning talaffuzi va yozilishini qiyoslash, bo'lishsiz fe'llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

**4-sinfda fe'lni** o'rganish. Bu sinfda fe'lni o'rganishning vazifalari quyidagilar:

1. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish; fe'lning leksik ma'nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe'ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda ma'nodosh va zid ma'noli fe'llardan matn bilan bog'liq holda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan ta-nishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3. Zamon qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishi haqidagi ko'nik-mani hosil qilish.

4. Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Fe'l zamoni shaklining mohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya'ni ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda, undan oldin va keyin bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi. O'quvchilar o'zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarini kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama qiladilar. Xuddi shunga o'xshash kuza-tishni tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar yuzasidan ham o'tkazadilar. Bu mavzu bahorda o'tiladi. Shuning uchun o'quvchilar kuzatish asosida „Bahor keldi. O'rik, olcha gulladi. Gullar ochilyapti. Endi gilos pishadi. Bahordan so'ng yoz keladi. Yozda bolalar oromgohga bormoqchi" kabi gaplar tuzadilar. Gapdagi fe'llarga so'roq berib, ish-harakatning bajariHsh payti, ya'ni ish-harakat bajarilayotganini (*nima qilyapti?* -o'qiyapti, ochilyapti), oldin bajarilganini (*nima qildi?* ~ o'qidi, keldi, gulladi) va keyin bajarilishi (*nima qilmoqchi?*— yodlamoqchi, bormoqchi) aniqlanadi. Aniq kuzatish asosida yig'ilgan bu leksik materiallar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi:

1. Fe'llar zamon bilan o'zgaradi. Fe'l uch zamonni bildiradi: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe'llari *nima qilyapti?* so'rog'iga javob bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O'tgan zamon fe'li *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakat-ning oldin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe'li *nima qilmoqchi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan savoldan bilib oladilar. So'roqdan lining leksik ma'nosi ham bilinib turadi.

Fe'lning zamon shaklini yasash va bilib olish uchun o'quvchilarni so'roqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun avval jamoaviy ravishda ishlanadi va o'quvchilar e'tibori so'roq bilan fe'l zamonining bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. Zamon shaklini hosil qilish uchun fe'lning II shaxs birlik shakli asos qilib olinadi (Boshlang'ich sinflarda fe'lning bosh shakli o'rganilmaydi). Fe'lga so'roq berish bilan fe'l zamoni hosil qilinadi.

Bir fe'ldan uch zamoni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe'lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun „Fe'l" mavzusini o'rganish jarayonida fe'lni zamon qo'shimchasi bilan o'zgartirish mashqi muntazam o'tkazib boriladi.

O'quvchilarni fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe'l zamonini aniqlash va biror fe'l shaklidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe'l zamonini o'zgartirish, fe'llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi.

Dasturga ko'ra, bu sinfda fe'llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarda o'zbek tilida III shaxs: so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs) mavjudligi haqidagi dastlabki ko'nikma „Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi" va „Kishilik olmoshlari" mavzulari o'rganilayotganda hosil qilingan. „Fe'llarda shaxs-son" mavzusi shu ko'nikmaga asoslangan holda tushuntiriladi.

Suhbat asosida kishilik olmoshlari III shaxsni, birlik va ko'plikni bildirishi eslatilgach, o'quvchilarga men olmoshini qatnashtirib gap tuzish topshiriladi. Ular tuzgan gap o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi (*Men kitobni o'qidim*). O'quvchilar *men* I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi ekanini avtadilar; *o'qidim* fe'lini so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilib, *o'qi* — o'zak, *-di* — o'tgan zamon qo'shimchasi, *-m* ham qo'shimcha ekanini aniqlaydilar. O'qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: ish-harakat so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs),

o'zga (III shaxs) tomonidan bajarilishi mumkin; ikkinchidan, ish-harakat yakka (bir) yoki bir necha shaxs tomonidan bajarilishi ham mumkin. Fe'llarga qo'shib, ish-harakatni bajargan shaxsni va sonni (ko'plik va birlikni) ham bildiradigan qo'shimchalar bor. Masalan, *o'qidim* fe'lidagi *-m* qo'shimchasi shunday ma'noni bildiradi, u shaxs-son qo'shimchasidir. Chunki *-m* o'qish harakatini bajargan shaxsni (I shaxsni) va sonini (bir kishi bajarganini) bildiriyapti, ya'ni ham shaxsni, ham sonni ifodalayapti. O'qituvchi (xattaxtaga yozilgan gaplarni ko'rsatib) „Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos bo'lgan fe'llarning shaxs-son qo'shimchasini topib qo'yib, gaplarni o'qish" vazifasini beradi. Mashq o'qituvchi rahbarligida birgalikda bajariladi.

Suhbat asosida xulosa chiqariladi: Fe'llar shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgaradi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi.

Fe'llarda shaxs-son haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo'shimchalarini qo'yish, berilgan fe'llarni hozirgi, o'tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo'shimchasi bilan tushlash, fe'llarni so'z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalaniladi.

Bu sinfda fe'llarning yozilishi haqida ham ko'nikma hosil qilinadi. Mavzuni tushuntirish uchun fe'llar ko'proq bo'lgan matn tanlanib, matnni o'qish, so'roq berib fe'llarni topish va qanday yozilganini aytish topshiriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida vazifani bajaradilar.

#### **1.4. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda texnologik yondashuv**

Boshlang'ich ta'lim juda murakkab jarayon bo'lib, bu davrda bola bevosita o'yin faoliyatidan ta'limiy faoliyatga kirishadi. Bu jarayonni hozirgi kun davr talabi asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchisidan katta mas'uliyat, bilim, mahoratni talab etadi.

Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchilarini chuqur bilimli, zukko va mustaqil fikr egasi etib tarbiyalashi uchun pedagogik texnologiya asoslari, o'qitishning zamonaviy va interfaol usullaridan unumli foydalanmog'i lozim.

Yuqorida keltirilgan muammolarning yechimi Respublika DTSlari talablaridan kelib chiqib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish maqsadida ta'lim jarayonida turli interfaol usullarni qo'llagan holda ish olib borishni taqozo etmoqda.

Quyida biz o'z pedagogik faoliyatimizda fe'l so'z turkumini pedagogik texnologiya elementlari asosida tashkil etib ta'limda samarali bo'lib kelgan o'qitish metodlaridan namunalar keltiramiz. Bu usullaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ish faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, xususan, boshlang'ich ta'limda samarali o'qitish usullari asosida o'tiladigan darslarda har bir o'quvchi o'zining ichki imkoniyati, qobiliyatini namoyon qiladi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Talim jarayonida qo'llaniladigan o'qitish usullarini biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko'ra ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

1. Mazmuniga ko'ra o'qitish usullari quyidagi turlarga bo'linadi:

- Tinch o'yinli usullar;
- Harakatli o'yinli usullar;
- Aralash turdagi o'yinli usullar.

2. Shakliga ko'ra o'qitish usullari quyidagi turlarga bo'linadi.

- Musobaqa shaklidagi usullar;
- Sahna o'yini shaklidagi usullar.

Shuni eslatib o'tish joizki, ona tilidarslarida fe'l so'z turkumini o'rgatish uchun tavsiya qilinayotgan o'qitish usullaridan foydalanishda qat'iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.

Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zim tekshiraman", "Hikoya," «U kim, bu nima?", "Topag'on", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Harflarni top", "O'qib ko'r-chi", "Davom ettir", "Safar", "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin-topishmoq", "Bu meniki", "Tez javob", "Rebus", "Krossvord».

Pedagogikamaliyotjarayonida qo'llanilgan ushbu o'yinlarning ayrimlaridan misollarni keltiramiz.

"Hikoya" o'yinida, o'qituvchidosh kagafe'l so'z turkumi ifodalagan bir nechtasoz yozib qo'yadi. (Masalan, yozdi-yozib, keldi-kelib, uchdi-uchib, sarg'aydi-sarg'ayib kabi). O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida gap yoki hikoya tuzadilar. Tuzilgan matndan fe'l izohlangan so'zlarni topib, tahlil qilishadi. Qanday harakatdagi fe'l (bo'lishli yoki bo'lishsiz), u gapning ichida qaysi so'zga bog'lanib kelgan, qaysi qo'shimchalar bilan tushlangan, qaysi zamondagi fe'l kabi savollarga javob topishadi. Masalan: Biz mustaqil yurt ulg'aymoqdamiz. Bizning vatanda iste'dodli, iqtidorli yoshlar juda ko'p o'qishadi, intilishadi. Biz ularga qiziqamiz, ulardan o'rnak olamiz.

Matnda ko'plikdagi fe'llar ishtirok etib, ular gapning kesimi, hozirgi zamon fe'llari vazifalarida kelgan. Matnning ega va kesimi shaxs-sonda moslashgan. (ulg'aymoqdamiz, o'qishadi, intilishadi, qiziqamiz, o'rnak olamiz).

Hikoya yoki matn tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

“U kim, bu nima?” o‘yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo‘yiladi. O‘qituvchi shu predmetlardan birortasini tariflaydi. O‘quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu metodning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o‘quvchilar diqqatini jamlash, qo‘llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu metod o‘quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o‘yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin. Bu metod shakli fe‘l so‘z turkumini o‘rganishda quyidagicha bo‘lishi mumkin. O‘quvchidan so‘ralishi mumkin bo‘lgan savol-topshiriqlarda fe‘l so‘z turkumi ifodalangan bo‘ladi.

Masalan:

1-variant: Bo‘lishli harakatni ifodalab gap tuzing? (4-sinflar uchun). U bugun maktabga bordi. Ukam xatini chiroyli yozdi. Akram uyga berilgan hikoyani o‘qidi.

2-variant: Bo‘lishsiz harakatni ifodalab gap tuzing? U bugun maktabga bormadi. Ukam xatini chiroyli yozmadi. Akram uyga berilgan hikoyani o‘qimadi. Shu tarzda 4-sinflarda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar izohlab, tushuntiriladi. O‘quvchilarga fe‘lning bo‘lishsiz shakli – ma orqali hosil bo‘lishi aytib o‘tiladi.

“Davom ettir” o‘yinida, o‘qituvchi hikoyani boshlab beradi. O‘quvchilar yangi mavzuga moslab uni davom ettiradilar. Bunda o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so‘z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“Davom ettir” o‘yinida ona tili va o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin. Bunda yangi mavzu bo‘yicha fe‘l ishtirok etgan gaplarni hosil qiladi. Qolganlari ham shu tartibda davom ettiriladi.

1-variant: “U barvaqt maktabga kelayotganida yo‘lda...”.

2-variant: “Men havo ilib, qorlar erib boshlaganda tug‘ilganman...”.

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o‘quvchilar, hayvonot bog‘iga bordik...”.

Harakatli metodlarga quyidagilar kiradi: “U nima qilyapti?”, ”Jonli hikoya” va “Quruvchi”.

“U nima qilyapti” o’yinida, o’quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O’quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o’yin ona tili darslarida o’quvchilar nutqini o’stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o’tkaziladi.

“**Jonli hikoya**” usulida, o’qituvchi so’zlar yozilgan qog’ozlarni o’quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so’ng o’qituvchi o’quvchilarga hikoya qilib beradi. (Qog’ozlarda yozilgan so’zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) Hosil qilingan hikoyalarida yangi mavzu bo’yicha fe’l ishtirok etishi lozim. O’qituvchi hikoyani ikkinchi marta o’qib berganda o’quvchilar qo’llaridagi qog’ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog’ozlarga yozilgan so’zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu usulni qo’llashda darslikdagi mashqlar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Biz ekan daraxtlar **gullab**, maysalar **ko’kara boshlaydi**.

2-variant: Olimjon ko’chada yig’layotgan bolani **ko’rib qoldi**. U koptogini ariqqa **tushirib yuboribdi**. Olimjon uning koptogini **olib berdi**.

3-variant: O’rmon shohi sher yig’in **o’tkazdi**. Ular tulkixonning ishlarini **muhokama qildilar**. Tulkixon aybini **bo’yniga oldi**.

O’yin so’ngida o’quvchilar hosil qilgan hikoyalarida fe’lga xos so’zlarni topib, uni tahlil qilib beradi. Hosil qilgan hikoyalarida fe’l so’z turkumiga oid so’z qatnashib, ular fe’lning vazifa shakllari bilan izohlanib kelayotganligini aytishadi. Shu o’rinda boshlang’ich sinf (4-sinf) o’quvchilariga sof fe’llar bilan birgalikda fe’lning vazifa shakllari bir butunlikda fe’llarning tarkibiy qismini tashkil etayotganligini uqtirib o’tishadi.

“**Quruvchi**” usuli o’quvchilarni guruhlarga bo’lib, darsda o’tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o’tkazilishi mumkin. O’qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko’rib, qog’ozdan yoki penoplast bo’lakchalaridan “g’ishtchalar” yasaydi va bu “g’ishtchalarga”



savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. "G'ishtchalar" soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlarga "minora" yoki "devor" qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va "g'ishtcha" ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining "maydoncha" lariga "g'isht" ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi "g'ishtcha"ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan "g'ishtcha" olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. "Qurilish maydonchasi" da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

Aralash tipdagi o'qitish usullariga quyidagilar kiradi: "Nima yo'qolib qoldi", "Pochtachi", "Kun va tun", "Qarmoq", "Meni tushun", "Iztopar", "So'z o'yini", "Xat kimniki", "Izma-iz".

**"Qarmoq" metodi:** Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli matn va mashqlarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog'ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg'ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo'lakchasi bog'lab qo'yiladi. O'quvchilar bu "qarmoqlar" vositasida "baliqchalar" dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo'ladi.

**So'z o'yini metodi:** o'quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. Bunda guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nqlab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

Bu metoddan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

## **II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA FE'LNING SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TURI VA SHAKLLARI.**

### **2.1. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish**

Jamiyatimiz hayotini jahon talablari darajasiga olib chiqish uchun barcha sohalarda – iqtisodiy, siyosiy sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham islohatlar amalga oshirilib tubdan o'zgartirilmoqda, ta'lim berishning zamonaviy va yangicha usullari joriy etilmoqda. Agar ta'lim tizimi islohatlarini kengroq yoritadigan bo'lsak, ta'limni yangicha isloh qilish maqsadida Kadrlar tayyorlash milliy darsturi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi, bir necha qaror va farmoyishlar, nizomlar kuchga kirmoqda. Bularning barchasi ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlardir. (1, 2, 3, 4)

Ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarkib toptirishdir.

Bizga ma'lumki, ta'lim berish orqali tarbiya va tarbiyalash orqali ta'lim beriladi. Ya'ni, ta'lim berishning asosiy qismi o'quvchilarni har tomonlama komillikka etaklashdir.

Ta'limning yangi mazmuni boshlang'ich sinflar o'quvchilarini ona tili darslarida savodxon, bilimli, nazariyani amaliy ishlarda tushuntira oladigan, o'quvchi o'z ehtiyoji talab qilgan darajadagi o'quv materialini o'zlashtiradigan darajada tarbiyalab berishni nazarda tutmoqda. O'quvchilarni faollikka undashda darsda interfaol usullardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi.

O'qituvchi nuqtai-nazardan turib yondashish o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyati mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalardan amaliy faoliyatlarida foydalanadilar. Mashqlarni aniq bajarish usullari va texnikalarning chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida yo'l qo'yilishi lozim bo'lgan amaliy mashq usullaridan bir bu yozma bahs usulidir. Bunday usulda muloqat o'rnatish natijasida o'quvchilarning erkin tarzda mustaqil fikrni ifodalash imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi. Og'zaki muloqat jarayonida bayon qila olmagan fikrlar bemalol yozma shaklda bildirish uchun sharoit yaratiladi.

Ona tili darslarida fe'l so'z turkumlarini chuqur o'zlashtirishda hamkorlikda o'qitish usullari bizga yaqindan yordam beradi.

O'qituvchi o'quv dasturidan o'rin olgan «Fe'l» so'z turkumini o'tishda o'quvchilar guruhi uchun materialini mustaqil ishlab o'rganishlariga imkon beradigan o'quv topshiriqlarini tuzadi.

«Fe'l» so'z turkumi mavzusini boshlashdan oldin o'quvchilarni bir necha guruhga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish mmkin. Har bir topshiriq bo'yicha savol-javob o'tkazilib, o'quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholab boriladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish usulidan foydalanib, o'tiladigan darsning borishini quyidagicha loyihalash tavsiya etiladi:

I. Tashkiliy qism:

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash:

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

A) o'quvchilarni guruhlariga ajratib, guruh a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish:

B) o'quv materialini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan guruhlar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi o'tkazish.

VI. Mavzu matnida berilgan o'quv mashg'ulotini uyushtirish.

VII. Test savollari yordamida o'quvchilar bilimini nazorat qilishva baholash.

VIII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

IX. Uyga vazifa berish.

Guruhlar o'rtasidagi o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi.

## **Mavzu: Fe'l - so'z turkumi**

**Maqsad:** O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, mustaqil ish bajarish qobiliyatini shakllantirish, o'rtoqlari fikrini hurmat qilishga o'rgatish, ot haqidagi tushunchalarni boyitish.

### **Kutilayotgan natija:**

O'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish orqali ular faolligini oshirish, fe'l mavzusiga doir tushunchalarni singdirish, bilim berish bilan birga aqliy faoliyatini oshirish va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'stirishga erishish.

**Uslub:** Aqliy hujum, savol-javob, musobaqa tarzida.

**Jihoz:** Darslik, tarqatma, ko'rgazma, oddiy va rasmi testlar, magnit tasma.

### **Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashilgach, magnit tasma orqali O'zbekiston davlat madhiyasi eshittiriladi. O'quvchilar qo'llari ko'ksida tik turgan xolda birlashib aytadilar. So'ng o'rnilariga o'tiradilar.

O'qituvchi: - Hozir qanday dars o'tamiz?

O'quvchi:

- Sen onam tilisan, otam tilisan,
- Sen bobom tilisan, asrlar oshgan.
- O, ona tilginam, muqaddas tilim,
- Bunchalar shirinsan, bunchalar so'lim.

O'qituvchi: - Barakalla, o'g'lim. Aziz o'quvchilar, o'rtog'ingiz yozuvchi Shuhratning til haqidagi she'ridan to'rtlik keltirdi.

Demak, hozir biz sevib, ardoqlab o'rganadigan tilimiz bo'lgan ona tili mashg'ulotini ko'ramiz. Qani, o'quvchilar, qo'limdagipatnisdaturganshakllardanixtiyoriytanlaboling-chi. (patnisda o'quvchi soniga qarab 30 ta to'rtburchak shakllar bo'lib, uning bir tomoni moviy rang, orqa-oq tomonidan esa 3 guruhga bo'lish uchun 10 tadan shaklga qaldirg'och, kabutar va burgut rasmi chizilgan bo'ladi).

Qani bolalar, qo'lingizdagi shaklga nomi yozilgan qatorga o'tib o'tiringchi. Mana, guruhlarga ham bo'linib oldik. Endi bilimlarimizni o'zaro sinab, musobaqalashib ko'ramiz. Musobaqa asosan 5 tur bo'yicha bo'ladi. Marhamat boshladik.

1-tur: «Ona tilim-joni dilim», «Qaldirg'och», «Kabutar», «Burugut».

Guruhlar a'zolaridan vakil chiqib, ko'rgazmaga o'rnatilgan savollardan olib javob beradi.

Savollar:

- 1) O'zbek tiliga davlat maqomi qachon berilgan:
- 2) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida til haqida ko'rsatilgan?
- 3) . . . Undagi har fikr, har qoida idrokingizga qudrat beradi.

Binobarin, siz ham bu sahifalarga ixlos ko'zi ila qarang. Bu iboralar qaerga berilgan va nima haqida fikr yuritilgan?

2-tur: «Bilimingizni sinab ko'ring» har bir guruhda 2 tadan oddiy va rasmlil test tarqatib, o'tgan mavzular bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi.

1. Harakatni bildiruvchi so'zlar qatorini aniqlang.  
A) keldi, yozdi, chizdi  
V) qorbobo, qizcha, o'qituvchi.
2. Bo'lishsiz harakatni bildirgan so'zlar qatorini aniqlang.  
A) ikkitadan, uchtadan. to'rttadan  
V) aytmadi, kelmadi, bermadi
3. Gapni to'ldirib o'qing va fe'lni aniqlang.  
.....o'quvchi maydonda sayr qilishdi.  
A) sayr  
V) sayr qilishdi  
S) o'quvchi
4. Gapni to'ldirib o'qing va fe'l zamonini aniqlang.  
Momiqqina.....olmaxon daraxt shoxida o'tiribdi.  
A) Bir, hozirgi zamon

V) Daraxt, kelasi zamon

S) Momiqqina, o'tgan zamon

5. Ko'plikdagi fe'llar qatorini aniqlang.

A) keldi, yoydi, ishladi

V) kelishdi, yoyishdi, ishlashdi

3-tur: «Muzyorar» yozma bahs o'yini.

Har bir guruhda qaldirg'och, kabutar, burgut rasmi chizilgan oq qog'oz taraqatiladi.

Bolalar berilgan savollarga javobni yozma ravishda topshiradilar.

Bu «Muzyorar» o'yini orqali o'quvchilar narsa, uning harakati va bularga beriladigan so'roqlarni hamda bosh bo'laklarini bir vaqtda o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

O'yin o'quvchilarni mustaqil fikrlab, xulosa chiqarishga o'rgatadi.

4-tur: «Meni tushun» o'yini

Bevosita yangi mavzuga kirib boriladi. Bunga guruhlardan bir nafardan o'quvchi chiqadi. O'quvchilar so'zsiz harakat bajarishadi, qolgan guruh azolari bir-birini izohlaydilar, bajarilgan harakatlarga so'roqlar belgisi orqali fe'lning qoidasini keltirib chiqaramiz.

Qoida: Fe'l ish-harakatni bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi kabi so'roqlariga javob bo'ladi.

So'ngra fe'l so'z turkumiga oid mashq sharti asosida bajariladi, yozuv taxtasiga yoziladi. Gapdagi fe'lga oid so'zlarni toping? O'quvchilar daftarga yozadilar.

Shifokor ikkita bemorni davoladi. (nima qildi?)

Karim bugun besh baho oldi. (nima qildi?)

O'quvchilar bugun maktab bog'ida ishladi. (nima qildi?)

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga fe'l ishtirok etgan bittadan gap tuzish va daftarga yozishni mustaqil ish tariqasida beriladi.

5-tur: «Moychechakda yashiringan so'zni top» o'yini.

Ko'rgazmada so'zlarga mos «Fe'lli maqollar aytish» topshirig'i bajariladi.

1.) yiqar; 2) o'lchamoq; 3) sanamoq; 4) haydamoq va hokazo.

Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r- mingni.

Etti o'lchab bir kes.

Sanamay, sakkiz dema.

Er haydasang, kuz hayda,

Kuz haydamasang, yuz hayda kabi.

Barcha turda qatnashgan, fikr bildirgan o'quvchilarni tarqatma ball berib rag'batlantirib boriladi. Dars nihoyasida olingan tarqatma baholar asosida g'olib guruh aniqlanadi. qizil rang- 3 ball, moviy rang- 2 ball, oq rang – 1 ball.

Shu gaplarga qarab ballar jamlanadi, g'olib guruh rag'batlantiriladi.

#### **4-sinf**

**Mavzu:**«Fe'l so'z turkumi» mavzusida mustahkamlovchi takrorlash darsi.

**Darsning maqsadlari:**

**Ta'limiy:**fe'l mavzusidagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, takrorlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish malakasini oshirish. Ona tilini e'zozlagan holda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:**odob-axloq qoida-lariga rioya etish, o'zgalar fikrini hurmat qilishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:**o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, hozirjavobligini oshirish.

**Dars turi:**o'tilganlarni takrorlash, noan'anaviy.

**Dars usuli:**test, tarmoqlash, «Beshinchisi ortiqcha», «Nima qiladi?», «Baxtli tasodif» topshiriqlari.

**Dars jihozi:**darslik, kompyu-ter, monitor, tarqatma kartochkalar.

**Dars shiori:**«O'rgan-o'rgat» shiori —Boshlang'ich poydevori.«Sog'lom tanda — sog' aql»Biz doim bunga kafil!

**Darsningborishi**

## **1.Tashkiliy qism.**

O'quvchilarning darsga hozirligi tekshiriladi. «Tartib posboni» va «Orasta qiz» hisobot beradi. Ma'naviyat daqiqasi o'tka-ziladi.

1. 2017- yil qanday yil deb nomlandi?

1.Sog'lom bola bo'lish uchun biz nimalarga amal qilishimiz kerak?

3. To'kin va farovon hayot qurib yashash uchun nimalar qilmog'imiz lozim?

O'qituvchi mazkur savollar orqali o'quvchilarning fikr va munosabatini bilib oladi hamda bu borada ularga o'z maslahat va tavsiyalarini beradi.

## **2.Uy vazifasini tekshirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Baxtli tasodif»topshirig'idan foydalanib, o'quvchilarga 5ta konvert ko'rsatiladi, 1ta konvert ichida «Omadli 5» so'zi yozilgan bo'ladi. O'quvchilar konvertdagi savollarga birin-ketin doskaga chiqib javob berishadi. Kimga «Baxtli tasodif» chiptasi tushsa, o'quvchilar qarsak chaladi va omadli o'quvchi rag'batlantiriladi.

1- savol.Kishilik olmoshlarini ayting.

2- savol.Sifat yasovchi qo'shim-chalar qaysilar?

2- savol.Ma'no darajasiga ko'ra, sifatning qanday turlari bor?

3- 4- savol.Shaxs olmoshlarini ayting.

Navbatdagi test savollarini o'qituvchi og'zaki aytib turadi, o'quvchilar javoblarni yozib borishadi.

1- test. Qaysi kishilik olmosh-lari bitta shaxsni bildiradi?

a) biz, siz, ular b) men, sen, u d) u, ular

2- test. Kishilik olmoshlari qanday qo'shimchalar bilan qo'llaniladi?

a) egalik qo'shimchalari b) kelishik qo'shimchalari d) so'z yasovchi qo'shimchalar

3- test. Kishilik olmoshlari qanday gap bo'lagi vazifasida keladi?

a) ikkinchi darajali bo'lak b) bosh bo'lak d) ega

## **3.Yangi mavzu bayoni.**



O'qituvchi bir nechta harakat ifodalangan rasmlarni slayd orqali namoyish etadi. O'quvchilar esa rasmlarga qarab, harakatni bildirgan so'zlarni husnixat tarzida doskaga yozadi: Suv quyayпти. Arg'imchoq uchyapti. To'p o'ynayapti. Suhbat quryapti. Doskaga yozilgan javoblar tahlil qilinadi va ularni chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Shundan so'ng 4- sinfgacha o'tilgan fe'l qoidalari yodga olinadi. O'qituvchi savol beradi, o'quvchilar qo'l ko'tarib javob berishadi. 375- mashq. Matnni o'qib, ajratilgan so'zlarga so'roq bering. Ajratilgan so'zlarni ko'chiring, qavs ichida har birining so'rog'ini yozing. Yashashardi — (nima qilardi?) Yig'ladi — (nima qildi?) Og'riyapti — (nima qilyapti?) Tepdi — (nima qildi?) Achindi — (nima qildi?) Qiynayverdi — (nima qildi?) Yirtildi — (nima qildi?) Qochdi — (nima qildi?)

Mashqdagi so'zlarning ingliz tilida tarjimasini yozib olamiz:

yomon bola — bad boy (bed boy)

etik — boot (bu:t)

uy — house (haus)

suv — water (vote)

375- ertak — mashq yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi. Ertakni davom ettirish aytiladi va uning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

### **Lug'at ishi.**

O'qituvchi:— Bolalar, biz «Odobnoma» darsida odob-axloq qoidalarini o'rganib chiqqan edik. Forobiy bobomizning odob-axloq haqida aytgan fikrlari yodingizdami? Qani, uni bizga kim eslatadi?

1- o'quvchi:— Forobiy bobomiz «Daraxtning yetukligi uning mo'l-ko'l va shirin-shakar, sharbatga to'la mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanadi», deganlar.

O'qituvchi:— Buni qanday tushunish mumkin? Qani, kim izohlab beradi?

2- o'quvchi:— Odamlar olmaning yaxshi pishgan va shirinini maza qilib yeganlaridek, insonlarning ham odob-axloqli va tarbiyalisi boshqalarga manzur bo'ladi. Kishilar bunday insonlarni hurmat qiladilar. Shunday

ekan, bizlarni bunday yaxshi sifatlarga yetaklovchi vosita — axloq ekanligini bilishimiz lozim.

O'qituvchi:— Rahmat, bolajonlar, juda to'g'ri aytdingiz. Yuqorida do'stingiz ta'kidlaganidek, yaxshi inson bo'lishga, kiyimlaringizni ham toza va ozoda tutishga harakat qiling.

#### **4.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Beshinchisi ortiqcha» topshirig'i bajariladi. Buning uchun o'quvchilarga turli so'z turkumlariga oid so'zlar qatori yozilgan kartochka tarqatiladi. O'quvchilar undagi ortiqcha so'zni topishadi.

1. Maktab, kitob, kundalik, keldi, bola (ot).
2. Chiroyli, moviy, qizil, ikkita, semiz (sifat).
3. O'quvchi, to'rtta, beshinchi, yuzta, o'nta (son)
4. Bordi, keldi, o'tirdi, uxladi, novvoy (fe'l).

Shundan so'ng «Nima qiladi?» mashqi bajariladi. Bunda birinchi chiqqan o'quvchi gapni to'ldirib yozsa, ikkinchisi grammatik tahlil qiladi. Qolganlari ham shu tarzda davom ettiradi.

5.O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish

6.Uyga vazifa.377- mashqdagi she'rni ifodali o'qing, ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.

#### **Fe'lni o'rganish metodikasi.**

Fe'lni o'rganish boshqa so'z turkumlariga nisbatan ozgina murakkabroq bo'lib, uni ustida ishlash 1-sinfdan boshlanadi. Bunda o'quvchilar so'zning harakatini bildirgan so'zlar bilan ishlaydilar, ya'ni gapdagi so'zlarga savol berib, rasmlar va matn ustida ishlash, tabiatni kuzatish jarayonida savol-javob o'tkazish, savolga to'g'ri javob bo'ladigan so'zni tanlash orqali shakllantirib boriladi. Masalan: Kuzda barglar nima qiladi?, Darsda o'quvchilar nima qiladilar? kabi va hakazo. Demak, fe'lni o'rganish 1-sinfdan harakatni bildirgan so'zlarga savol berish bilan boshlanadi. Dasturda bu jarayon yuzaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakatni bildirgan so'zlarni bir yoki ko'pchilik tomonidan bajarilayotganini anglab, shunga ko'ra so'roq berishni bilishlari, o'qituvchi tomonidan berilgan so'roqqa qarab,

soʻzni mos ravishda oʻzgartirish, ularni bir-biridan farqlash koʻnikmasini shakllantirish talab etiladi. Masalan, bir shaxs tomonidan bajariladigan harakatga koʻra nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?; ikki yoki yndan ortiq shaxs tomonidan bajariladigan harakatga koʻra nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qilmoqchilar? soʻroqlarini berish. Keyingi, 2-3-sinflarga kelib, oʻquvchilar feʼlni soʻz turkumi sifatida oʻrganadilar. Bunda oʻquvchilarda “Feʼl- soʻz turkumi” tushunchasi shakllantiriladi va boʻlishli, boʻlishsiz feʼllarni maʼnosi, shakli orqali farqlash koʻnikmasi hosil qilinib, boʻlishsizlik qoʻshimchasi (-ma)ning talaffuzi va imlosini oʻrgatiladi. Oʻqituvchi harakatni bildirgan soʻzlarni feʼl ekanini oʻrgatish uchun oʻquvchilar bilan suhbatlar turli didaktik oʻyinlar oʻtkazish orqali aniq tasavvur hosil qiladi va gap boʻlagi jihatdan tahlil qilib, xulosa yasaydi, yaʼni nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? kabi soʻroqlarga javob boʻlib, predmet harakatini bildirgan soʻzlarni feʼl deyilishi va gapda kesim vazifasida kelishi haqida tushuncha beriladi. 3-sinfda dasturga koʻra, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar haqida tushuncha beriladi. Bu mavzuni singdirishda ham suhbatdan foydalaniladi. Oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilarga savollar beriladi va savollargaberilgan javoblardan feʼllarni soʻroq berish orqali topib, maʼnolarini taqqoslanadi. Soʻngulardagi farq aniqlanadi va oʻqituvchi yordamida xulosalanadi: harakatni bajarilgani, hozir bajarilishi va keyin bajarilishini bildirgan soʻzlarga boʻlishli, harakatni bajarilmagani, keyin ham bajarilmasligini bildirgan soʻzlarga boʻlishsiz feʼllar deyilishi tushuntiriladi. Oʻquvchilarni boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun mashqlardan foydalaniladi. Boʻlishsiz feʼllarni qoʻshimchasi –ma talaffuz qilinganda –mi boʻlib eshitilsa ham yozuvda –ma holicha yozilishi haqida tushunchalar, boʻlishsizdan boʻlishli feʼl hosil qilish va aksincha, topshiriqlar, taqqoslash va berilgan feʼllardan foydalanib, gaplar tuzishga doir mashq va didaktik oʻyinlar oʻtilgan mavzu boʻyicha bilim, koʻnikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Dasturga koʻra 4-sinflarda feʼlni oʻrganish quyidagi vazifalarni bajaradi:

Feʼlning leksik maʼnolari, boʻlishli va boʻlishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish; feʼlning shaxs-son qoʻshimchalari bilan tuslanishi, zamon qoʻshimchasi bilan oʻzgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki koʻnikma hosil qilish. Feʼldan nutqda ongli foydalanish malakasini rivojlantirish maqsadida maʼnodosh va zid maʼnoli feʼllardan matn bilan bogʻliq holda oʻz va koʻchma maʼnoda ishlatilgan feʼllar bilan tanishtirishga qaratilgan mashqlardan foydalanish. Feʼl zamonlari, ularning qoʻshimchalariga oid tushuncha va koʻnikmalarni hosil qilish. Qoʻshma feʼllar va ularning yozilishiga doir tushunchalarni berish bilan oʻquvchilarda dastlabki koʻnikmani hosil qilish.

4-sinfda fe'l zamonlarini mohiyatini tushuntirish, zamonlarga doir bilimlarni hosil qilish uchun o'quvchilar bilan kuzatish, taqqoslash, muhokama qilish mashqlarini olib boriladi va o'qituvchi yordamida olinganleksik materiallar umumlashtirilib, xulosalanadi: Fe'llar uch zamonga o'zgaradi, bular: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon. Nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'lgan fe'llar ish-harakatning hozirgi zamonda, ya'ni aynan shu vaqtda bajarilayotganini bildirib, hozirgi zamon fe'li xisoblanadi. Nima qildi? so'rog'iga javob bo'lgan fe'llar ish-harakatning o'tgan zamonda, ya'ni aynan shu vaqtdan avval bajarilganini bildirib, o'tgan zamon fe'li xisoblanadi. Nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'lgan fe'llar ish-harakatning keyin, ya'ni aynan shu vaqtdan so'ng bajarilishini bildirib, kelasi zamon fe'li xisoblanadi. Fe'llarni zamonlarda hosil qilish uchun o'quvchilar zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishlari va qo'shimchalarini o'zlashtirishlari lozim. Shuning uchun o'quvchilar bilan fe'llarni zamonlarga o'zgartirish va fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish yuzasidan muntazam turli ko'rinishdagi mashqlar o'tkazib boriladi. O'quvchilar bu sinfda fe'llarda shaxs-son haqida tushuncha olishadi. Shaxs-son haqida o'quvchilarda tushuncha mavjud bolganligi uchun fe'llarda shaxs-son ustida ishlash shu ko'nikmalarga asoslanadi. Albatta buning uchun o'quvchilarga suhbat asosida kishilik olmoshlari III shaxsni, birlik va ko'plikni bildirishi eslatilgach, o'quvchilar bilan gaplar tuzilib, o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinishi orqali fe'llarda shaxs-son haqidagi tushuncha singdiriladi. Bu mavzu bo'yicha ko'nikimalarni shakllantirish uchun muntazam berilgan fe'llarga zamon qo'shimchalarini qo'shib, shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash, biron fe'llar ko'p uchraydigan matn tanlanib, matnni o'qish, so'roq berib fe'llarni topish va yozilishini o'rganish, fe'lni so'z turkumi jihatdan tahlil qilish kabi turli mashqlar orqali amalga oshiriladi

## **Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar**

### **1- sinf**

**Mashq.** Berilgan so'zlarga kim? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni qo'yib yozing.

O'qitadi, o'qiydi, davolaydi, o'ynaydi.

Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga ikkita to'g'ri chiziq chizing.

**Namuna:** qizcha o'ynaydi

**Mashq.** o'qing. Nima qildi?, nima qilyapti? Nima qiladi? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib yozing.

Olma, anor, qochdi, qizil, qo'ndi, ishlaydi, uzyapti, behi, chiqyapti, deraza, kelyapti, oladi, qoladi, chiqdi.

Yozganlaringizni tekshiring

**Mashq.** O'qing. Ko'chiring.

Bahor keldi. Bog'larda gullar ochildi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi. Jamalak sochli Zumrad bog'ga kirdi. U olxo'ridan dovuchcha so'radi.

Olxo'ri dedi:” Tez kunlarda pishaman, yerga tap-tap tushaman. O'shanda kel, qizaloq...”

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlarni so'roqlar yordamida toping va tagiga ikki chiziq chizing.

## **2-sinf**

**Mashq.** topishmoqni o'qing, javobini toping.

Loy bo'lib suyuladi,

Qolipda quyiladi.

Xumdon-pechda pishadi

Mashinaga tushadi,

Qurilishga ketadi.

Topishmoqni topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Bu so'zlar nimani bildiradi? Ular qanday so'roqqa javob bo'ladi?

Harakatni biladigan so'zlarni ko'chiring.

**Namuna:** nima qiladi? suyuladi,....

**Mashq.** Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni tanlang.

Nima? ... kishnaydi, yo'rg'alaydi, chopadi.

Nima? ... qurillaydi, sakraydi, suzadi.

Gaplarni yozing. Birinchi gap nima haqida aytilgan? U haqida nimalar deyilgan? Ikkinchi gapdachi?

**Mashq.** Mazmunga mos qush nomlarini qo'yib, gaplarni yozing. Harakatni biladigan so'zlar tagiga chizing.

... chirqillaydi. ... qag'illaydi. ... kukulaydi. ... chiroyli sayraydi.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: olaqarg'a, chumchuq, kakku, bulbul.

## **Fe'l so'z turkumi**

### **3-sinf**

**Mashq.** O'qing.

Shifokor bemorni (nima qildi?) **davoladi.**

Qor tinmay (nima qilyapti?) **yog'yapti.**

Qushlar don (nima qiladi?) **izlaydi**

Ajratilgan so'zlar nimani bildiriyapti? Ular qaysi so'roqlarga javob bo'lyapti?

**Mashq.** gapning mazmuniga mos so'zlar tanlab, matnni ko'chiring.

Baxtiyorning otasi Safar aka cho'lda baxtini topgan insondir. Qo'riq yerga paxta ..., bog'-rog- bunyod ... . uning mehnatidan el-yurt ... .

Safar aka oilasini cho'lga olib ketish uchun mashinada ... . Baxtiyor otasi oldiga yugurib ... .

Otasi uni ... .

**Foydalanish uchun so'zlar:** qildi, ekdi, keldi, erkaladi, bordi, bahra oladi.

**Mashq.** Yiqilmoq, qulamoq, ag'anamoq, yumalamoq fe'llarining ma'nosida farq bormi? Shu fe'llar ishtirokida ikkita gap tuzing.

### **4- Sinf**

**Mashq.**She'rni ifodali o'qing.

**O'yin bo'lsa**

O'yin bo'lsa o'ynaymiz,

Bo'lmasa-chi, topamiz.

Topolmasak zir yelib,

To'rt tomonga chopamiz.

Yiqilamiz, turamiz-

Shu ham o'yin atalar.

Bizday necha yiqilib,

Katta bo'lgan otalar

Qaysi so'z turkumidagi so'zlar ohangdosh bo'lib kelganligini aniqlab yozung.

**Mashq.**matnni o'qing va ko'chiring. Fe'llarni aniqlab, qavs ichida zamonini ko'rsating.

dilnozaning uyiga Sarvi hola chiqdi. Dilnoza Sarvi xolaga odob bilan salom berdi.U darrov ichkaridan ko'rpacha olib chiqdi.

Dilnoza tezda dasturxon yozdi.Noz-ne'matlarni keltirdi.Sarvi xola ko'p o'tirmadi, lekin Dilnozani maqtadi.

Aytilishi va yozilishida farqi bo'lgan fe'lni ayting.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda quyidagi didaktik o'yinlardan samarali foydalanish mumkin.

### **«Zinapoya» usuli**

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. So'ng xattaxtaga ma'lum bir shaklda «zinapoya» chiziladi.

Ma'lumki, antonimlar o'z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi «zinapoya» ga yozib qo'yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o'quvchilarning o'zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o'quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib bosh zinaga chiqsa, ular g'olib bo'ladi. Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa, zinalar soni shuncha bo'ladi. Masalan,

keldi – kelmadi

yozdi – yozmadi

berdi – bermadi

chizdi - chizmadi

### **«Izohli lug'at»**

Buning uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. 1-guruh ishtirokchilari so'z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o'quvchilar esa 1- guruhdagilar aytgan so'z va birikmalar ma'nosini tezkorlik bilan izohlab beradilar. Shartni bajara olmagan guruh mag'lub hisoblanadi. Bu o'yinda o'quvchilar fe'l yuzasidan o'rganiladigan zamonlarni o'rganishi mumkin. O'yin quyidagicha amalga oshiriladi:

Hozirgi zamon: keldi, aytdi, qurdi, yasadi, chizdi, berdi

O'tgan zamon: kelgan, aytgan, qurgan, yasagan, chizgan, bergan

Kelasi zamon: kelmoqchi, aytmoqchi, qurmoqchi, yasamoqchi,  
chizmoqchi, bermoqchi

Bu o'yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko'proq takrorlash darslarida o'tkazilishi mumkin. Izohli lug'at o'yinlarini sinfdan tashqari jarayonlarda ham o'tkazish maqsadga muvofiq.

### **«Klaster» usuli**

Bu usulda biror mavzu yoki matn tanlanib, o'quvchining diqqati aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi.

O'quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

Usulning maqsadi:



- o'quvchilar so'z boyligini oshirish;
- yozma nutqni takomillashtirish;
- fikrlash qobiliyatini shakllantirish;






- toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

«Klaster» usuli-bu pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchilarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bemaol o'ylashga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. «Klaster» usulidan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o'rganilguncha fikrlash faoliyatini ta'minlashda foydalanish mumkin.

O'quvchilarga sonning ma'no turlari o'rgatilayotganda juda qo'l keladi.





Bu usul orqali fe'lning ma'no turlari aytib o'tiladi va o'quvchilarga tushuntirib, izohlanadi. Masalan: Darsga besh nafar o'quvchi **keldi**. Mening ukam **gapira boshladi**. Do'stim kurashda **yiqli**. Barcha birdek **kulishdi**.

«Klaster» larga bo'lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib oling. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering.
2. Matnni kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.
3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga etmaguniga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelish to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelguncha qog'ozga nimalarni chizib o'tiring.
4. Imkoni boricha, bog'lanish mumkin bo'lgan bog'lanishlarni chizib chiqing.

«Klaster» usuli Stilning ta'biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda qo'llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g'oyalarining tirgovichi sifatida xizmat qiladi.

### **«Kubik» usuli**

«Kubik» lar (kovan va kovan 1980)-bu dars o'qitish usuli bo'lib, bu usul mavzuni o'rganishni osonlashtiradi. Har tomonlama 4 talablar berilgan kubiklardan foydalaniladi, kubiknibiror bir qutichaga olib yoniga qog'ozlar yopishtirish bilan yasash mumkin, tomonlari 15-20 sm bo'lgani yaxshi. Kubikning 6 ta tomoniga quyidagi ko'rsatmalar yoziladi.

(4-ilova).

1. Nomi
2. Tuzilishi
3. Taqqoslang
4. O'xshating
5. Vazifasi
6. Yaxshi, yomon tomonlarini yoriting

7. Aytinchchi, siz u bilan nima qila olasiz?. Undan qanday foydalanish mumkin?. Buning uchun sabablarni asoslab bering.

O'quvchilar o'z fikrlarini aytadi. O'z sherigiga nima yozganini o'qib beradi.

Masalan:

1. Nomi-kitob
  2. Tuzilishi-qog'oz, karton
  3. Taqqoslang-daftardan ko'ra katta yoki kichik bo'lishi mumkin
  4. O'xshating- to'rtburchakka o'xshaydi
  5. Vazifasi-bilim berish
  6. Yaxshi tomoni: rasmlari rang-barang, qiziq hikoyalar, she'rlarni, ertaklarni o'zida jamlagan
- Yomon tomoni: varaqlarining tez yirtilishi

Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirishga qaratilgan. Ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qartilgan ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib sanaladi.

Muammoli ta'lim ana shu fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini vujudga keltiradigan asosiy vosita sanaladi. Muammoli o'qitish yo'li bilan o'quvchilar faoliyatini faollashtirish bilimlarni tayyor holda berish orqali ular faoliyatini faollashtirishdan farqi qiladi.

Muammoli ta'lim yo'li bilan o'quvchini faollashtirish natijasida biz uning muayyan bir tizimda fikrlashiga erishamiz.

Izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat muammo yartish muammoli vaziyatni vujudga keltirish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchilikni engishi uchun o'quvchida mavjud bilimlar etishmay qoladi.

U noma'lum bilimlarni egallash uchun izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Izlanish o'quvchida faollikni vujudga keltiradi.

Ona tili darslarida fe'l so'z turkumini muammoli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali biz o'quvchilarni mantiqiy-lingvistik ish usullarini muvaffaqiyatli bajarishga o'rgatamiz, ularni aqliy hamda amaliy faoliyat usullari bilan qurollantiramiz, turkumning qonun qoidalari hamda so'z, so'z birikmasi, gap va matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdiramiz, til xususiyatlari va uning qonunlarini ijodiy o'zlashtirish va uni yozma hamda og'zaki nutqida ijodiy qo'llash malakalarini shakllantiramiz.

Ona tili darslarida qo'llanilgan muammoli ta'lim o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijodiy tafakkur esa o'quvchilarga noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilib olish jarayonini faollashtiradi, egallangan bilimlarining puxtaligini ta'minlaydi, o'quvchilarning til materiallariga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ijodiy tafakkur shubhasiz, ijodiy izlanish mahsuli bo'li u muammo yoki savol qo'yish bilan boshlanadi. Bu esa muammoli vaziyat vujudga keltiradi.

Ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda muammoli vaziyatni vujudga keltirishda o'quvchilarning o'quv imkoniyatini ham hisobga olish zurrur. Har bir o'quvchini o'zlashtirish imkoniyatiga qarab muammoli topshiriqning murakkablik darajasi belgilanadi.

Muammoning mohiyatini anglash muammoli ta'limning birinchi bosqichidir.

Keyingi bosqichlar muammoni echish natijani hisobga olish ana shu birinchi bosqichda o'zlashtirish bo'sh o'quvchilarni muammoli vaziyatga olib kirish o'qituvchiga ancha murakkablik tug'diradi. Buning uchun o'qituvchi differentsial ta'lim imkoniyatlaridan unumli foydalanishi kerak.

Ona tili darslarida mavzularni o'rgatish asnosida yaratiladigan muammoli xarakter xususiyati bilan uchga bo'linadi.

1. Nazariy muammo
2. Amaliy muammo
3. Badiiy muammo

## 2.2. Tajriba-sinovnatijalari

Biz O'zbekiston tumani 4 - umumta'lim maktabining boshlang'ich 1-4 sinflarida tadqiqot ishlarini olib bordik. Tadqiqot ishimizga 86 nafar o'quvchilar va 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilarini jalb qildik. Tadqiqotimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirdik.

Boshlang'ich sinf darsliklaridan foydalanib, fe'l so'z turkumi qoidalariga mos keladigan mashq va topshiriqlar bo'yicha bir necha vosita va usullarni ishlab chiqdik.

1. Nuqtalar o'rniga mos keladigan fe'l so'zlarni topish. Berilgan fe'llarning grammatik va lug'aviy ma'nosini izohlash.
2. Nuqtalar o'rniga mos keladigan fe'lning ma'no (aqliy, nutq, holat, jismoniy) turlarini topish. Berilgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlash.
3. Nuqtalar o'rniga mos keladigan zamon qo'shimchalarini qo'yish.
4. Nuqtalar o'rniga mos keladigan bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarini qo'yish.
5. Didaktik o'yinlar o'tkazish.
6. Kompyuterda so'z turkumiga oid o'yinlarni tashkilotish.
7. Mavzuga doir taqdimotlardan foydalanish kabi.

2-"A" sinfda 37 nafar o'quvchi 5 taguruhlargabo'lindi. 1-guruh «Bahor», 2-guruh «Quyosh», 3-guruh «Sevinch», 4-guruh «Lochin», 5-guruh «Gulrux» so'nraguruhsardorlarisaylandi. Har bir guruhsardoriga 2 tadansavol qo'yildi. O'quvchilar erkin bahs-munozaraga kirishdi.

Shubilan birgalikda og'zaki va yozma mashqlar bajarildi.

Tadqiqot davomida didaktik o'yinlar, sirliso'zo'yinlari, katakchanitoidirkabio'yinlar o'quvchilarning fe'l so'z turkumi qoidalarini tez va osong'zlashtirishiga yordamlashdi.

O'quvchilar fe'lmavzusi, fe'ning ma'no turlari, fe'ning zamon hosil qiluvchi qo'shimchalari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga doir mashqlarni bajarishdi. Grammatiko'yinlardafaolishtiroketishdi.

Rebus, krossvordo'yinlario'takazildi.

Fe'ning ma'no turlari ko'proq ishtirok etishi kerak bo'lgan hikoya va matn tuzish berildi.

Bundato'rttao'quvchiishtiroketdi.

Harbiro'quvchiqo'ligaqalam, ruchka, qog'ozberildi. Ko'rsatilgan predmetgata'rifberilishiso'raldi. Hikoyatuzishyokidialogiknutqqilishham so'raldi.

Qani, o'rtoqjon To'lqinshugulimgaqandayso'zlarqo'shaolasan?

- Gulso'zigabittashe'raytchi. Gulni chambarchas qilib taqib oladi.

Gullar ko'p gulzorda,

Qani tering-chi qizlar.

Qani ayting-chi menga

Guldan ham go'zal, chiroyli, maftunkordir so'zlar.

O'quvchilar juda tez she'r to'qishga,so'zlar qatorini to'g'ri hosil qilishga oshiqdirlar. Mavzuni tez o'zlashtirdilar.

Biz testlar asosida savol-javob qildik. Nazorat sinfi o'quvchilari ham bir muncha o'zlashtirishga erishdilar.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda tajriba ishlarimizni quyidagilarga qaratdik.

1. Tajriba guruhlariga 37nafar o'quvchi, nazorat guruhlariga44nafar o'quvchini jalb etdik.
2. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, fe'l so'z turkumi bo'yicha topshiriqlar test asosida o'tkazildi.
3. Tajriba guruhlarida 82,2 foiz o'zlashtirishga, nazorat sinfi esa 69,4 foiz o'zlashtirishga erishdilar.

## **Xulosa va metodik tavsiyalar**

Yuksak milliy ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining bosh omillaridan biridir. Xalq, davlat, millat manfaatlarini bir butunlikda to'laligicha tasavvur etuvchi, milliy g'ururi baland, o'z yurtining chinakam fidoyisi bo'lgan komil inson shaxsini tarbiyalash masalasini hal etmasdan turib, mamlakatimizning iqtisodiy, ma'naviy, madaniy jihatlardagi intellektual qudratimizni barqaror etishimiz mumkin emas. Shu tufayli hozirgi kunda mamlakatimizda sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga e'tibor berilmoqda.

Maktabda o'quvchilarga faqat umumiy ta'lim berish bilan cheklanilmaydi, unda boshlang'ich ta'limning zaruriy sharti bo'lgan mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat, mavzuni o'zlashtirish ko'nikmasi ham rivojlantirilib, har bir darsga ta'limiy-tarbiyaviy yondashish hissi shakllantiriladi va kamol toptiriladi.

O'quvchilarga ta'lim berishda asosiy maqsad ular ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashishni tarbiyalash, egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga tadbiq etish qobiliyatini o'stirishdan iboratdir. Bu jihatdan ham ona tili darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Bunda eng avvalo, ona tilimizga bo'lgan hurmat va ehtirom, tilni chuqur o'zlashtirish qobiliyati shakllanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'рни va ahamiyati juda katta zaruriy hodisa deob olinadi. Buning uchun oldindan hal qilinishi zarur bo'lgan pedagogik masalalarni aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishi natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

- boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar bilimini oshirishda boshlang'ich ta'lim mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga ega.

- ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda tilning asl mohiyati, mazmuni kabi tushunchalar singdirib boriladi.

- boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiya usullari yordamida darsni tashkil etish yaxshi samara beradi.



- bu borada ta'lim tizimiga texnologik yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, boshlang'ich ta'limning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- ta'lim-tarbiyaga yaxlit jarayon sifatida yondoshib, ona tili darslarida bu borada ham sinfdan tashqari mustaqil ishlarni ta'lim jarayoni bilan uzviy aloqada tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish ko'zlangan maqsadga olib boradi.

Mazkur tadqiqot ishimizda ham belgilagan maqsadlarimizga erishdik deb hisoblaymiz.

1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishning pedagogik muammo ekanligini birinchi bobimizning birinchi va ikkinchi tarkibiy qismlarida nazariy jihatdan asoslandi.

2. Fe'l so'z turkumini o'rgatish yordamida o'quvchilarda ta'lim-tarbiyani, ona tilimizning qonun-qoidalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari ishlab chiqildi.

3. Fe'l so'z turkumlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.

4. Fe'l so'z turkumini zamonaviy usullarda o'qitish yordamida o'quvchilarda mustaqil ish olib borishni ta'minlaydigan shakl va metodlar, vositalar tizimi ishlab chiqildi, bu jihat ilmiy asoslandi va tajribada tekshirib ko'rildi.

Olib borilgan tadqiqot ishimiz natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida o'quvchilar ongida til qonun-qoidalarini shakllantirish va o'zlashtirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- mustaqil tarzda fe'l so'z turkumi bo'yicha amaliy ishlarni tahlil qilish, bu boradagi malaka va ko'nikmalarni aniqlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining fe'l so'z turkumi bo'yicha bilimni oshirish va shakllantirishga doir metodik majmualar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish;

- fe'l so'z turkumini zamonaviy usullar yordamida shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning yangi metod va usullarini izlab topish, uni amaliyotga joriy etish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bu boradagi bilimlarini shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

- boshlang'ich sinf ona tili fanini o'qitish jarayonida o'quvchilar mustaqil bilimni shakllantirish bo'yicha ijtimoiy pedagogik yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borish va hokazo.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- so'z turkumlarini o'rganish yordamida o'quvchilarning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar uyushtirish;

- o'quvchilarning ijodiy ishlarini tarbiyalashga qaratilgan tashviqot-targ'ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;

Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalarning natijali bo'lishida boshlang'ich ta'lim maktablarining dasturlari mazmuniga aniq yo'nalishlar kiritilishi lozim. O'qituvchilar Ona tili darsliklari dasturidan o'quvchilarga bilim berishda va tarbiyalashda keng foydalanishlari lozim.

Tajrib-sinov ishlari tahlili asosida kichik yoshdagi o'quvchilarga fe'l so'z turkumini o'qitish texnologiyalari har jihatdan asoslab berildi. Ushbu xulosa va metodik tavsiyalarimizdan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan pedagog o'qituvchilar hamda shu soha bo'yicha ta'lim olayotgan, yangi etishib kelayotgan pedagog kadrlar ish faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I. A. Buyuk kelajak sari. –T.: «O'zbekiston», 1977.
3. Karimov I. A. Ma'naviyat – engilmas kuch. . –T.: «Ma'naviyat», 2009.
4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni birga quramiz.-T.: «O'zbekiston», 2017
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi 2017-2021 Toshent-.: 2017
6. . Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. .-T.: «O'zbekiston», 2017
7. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: «O'zbekiston», 1997.
8. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son
9. Ashrapova T. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi», 1984-yil. 102-103-betlar.
10. Yusupov M. Boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish malakalarini shakllantirish. –Toshkent: O'qituvchi. 1989-yil.
11. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi.T., «O'qituvchi», 1996-yil.18-25-betlar.
- 12.G'affoprova.T, Shodmonov.E. G'ulomova.X. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik “Sharq” –T.:2016
- 13.Qosimova.K. Fuzailov.S. Ne'matova.A Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik “Cho'lpon” –T.:2016
- 14.Fuzailova.S. Xudoyberganova.M. Yo'ldosheva.SH. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik “O'qituvchi” –T.: 2016

15. Ikromova.I. G'ulomova.X. Yo'ldosheva.Sh. Shodmonqulova.D. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik "O'qituvchi" –T.: 2017
16. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. – T.: «O'qituvchi», 1993. 33-37 b.
17. Nurmanov V., R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. –T.: «O'qituvchi», 1999. 27-30 b.
18. Ro'ziboeva O'. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T.: «O'zbekiston», 2001. 77-79 b.
19. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: «Sharq», 2003. 32-34 b.
20. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1995. 177-184 b.
21. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009. 13—136 b.
22. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O'qituvchi», 1992. 57-59 b.
23. G'affarova T. va boshq. Savod o'rgatish. – T.: 1997. 41-44 b.
24. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1993. 20-25 b.
25. Niyozmetova.R. Oxunjonova.O. Ametova.O. Aliqulova.H. ona tili fanidan o'quv qo'llanma "Navro'z"-T.:2014
26. Mengliyev.B. Xoliyorov.O'. ona tilidan universal qo'llanma "Fan"-T.:2008
27. Maxkamov.F. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi uslubiy qo'llanma Qo'qon davlat pedagogika institute
28. G'ulomova.X. G'affarova.T. ona tili darslari 1-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma "Tafakkur" –T.: 2012
29. Qarshi davlat universiteti ona tili va adabiyoti metodikasi kafedrasini. Ona tili o'qitish metodikasi fanidan o'quv metodik qo'llanma 2016
30. Rahmanova.V. Nurkeldiyeva.D. Nazarova.D. Ona tili o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma TDPU –T.: 2012

31. Ashrapova.T., Odilova.M., Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi

32. Matchonov.S va boshqalarning "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish" bo'yicha uslubiy qo'llanmasi

### **Internet materiallari**

1. [http:// bolalar sarkor. uz](http://bolalar.sarkor.uz)-bolalar ommabop informatsion sahifasi. Bolalarga foydali va qiziqarli bo'lgan turli ma'lumotlar keltirilgan.

2. [http: www referat.uz](http://www.referat.uz)-Turli fanlardan referatlar to'plamiga boy sahifa. O'quvchilarga juda foydali ma'lumotlar keltirilgan.

3. [http: www. online bi-Informatsion sahifa bo'lib](http://www.onlinebi-informatsion.uz), unda deyarli ixtiyoriy mavzudagi ma'lumotlarni topishingiz mumkin.

4. [www. Ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www. Arxiv. uz](http://www.arxiv.uz)

6. [www. Library.uz](http://www.library.uz)

7. [www. Referat.uz](http://www.referat.uz)